4. Teng yonli uchburchak asosidagi burchak tangensi $\sqrt{3}$ ga teng. Uning yon tomoniga o`tkazilgan medianasi va asosi orasidagi burchakni toping.
A) 60° B) 30° C) 15° D) 45°

5. Bir gala chumchuqlar bittadan shoxga qo`nganda bitta chumchuq ortib qoladi, ikkitadan qo`nsa, bitta shox ortib qoladi. Nechta chimchuq va nechta shox bo`lgan.
A) 6; 8 B) 8; 6 C) 4; 3 D) 3; 4

6. m va n natural sonlar $m^2 = n^2 + 173$ tenglikni qanoatlantirsa, n ni toping.
A) 169 B) 85 C) 87 D) 86

7. $\alpha = 30°, a = (tg\alpha)^{tg\alpha}, b = (ctg\alpha)^{ctg\alpha}$, $c = (ctg\alpha)^{tg\alpha}$ bo`lsa, quyidagilardan qaysi biri o`rinli?
A) $b > c > a$ B) $c > b > a$
C) $a > c > b$ D) $b > a > c$

8. Natural n sonning kvadrati 3 ga bo`linganda nechta qoldiq hosil bo`lishi mumkin?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 0

9. $x^2 + 100x + 2 = 0$ kvadrat tenglamaning haqiqiy yechimlari $x^2 + mx + n = 0$ tenglamaning haqiqiy yechimlarining kublariga teng. $m^3 - 3mn$ ning qiymatini toping.
A) 125 B) 50 C) 100 D) 81

10. $[1; 10]$ kesmada berilgan $f(x)$ funksiyaning eng katta va eng kichik qiymatlari teng bo`lsin. U holda $f(9) - f(5)$ ifodaning eng katta qiymatini toping.
A) 0 B) 4 C) 9 D) $f(4)$

11. Muntazam tetrayedrning balandligi 2 ga teng bo`lsa, uning to`la sirtini toping.
A) $6\sqrt{3}$ B) $12\sqrt{3}$ C) $18\sqrt{3}$ D) $3\sqrt{3}$

12. ABC uchburchakning AB, BC, CA tomonlariga mos ravishda shunday M, N, P nuqtalar olinganki, AM:AB=BN:BC=CP:CA=1:3 munosabat o`rinli. MNP uchburchak yuzasi 5 ga teng bo`lsa, ABC uchburchak yuzasini toping.
A) 25 B) 20 C) 15 D) 10

13. Uchburchakning medianalari m_1, m_2 va m_3 ga teng bo`lsa, uning tomonlari qanday aniqlanadi?
A) $2m_1; 2m_2; 2m_3$
B) $\frac{2}{3}\sqrt{2m_1^2 + 2m_2^2 - m_3^2}; \frac{2}{3}\sqrt{2m_1^2 + 2m_3^2 - m_2^2}$; $\frac{2}{3}\sqrt{2m_2^2 + 2m_3^2 - m_1^2}$
C) $\frac{\sqrt{3}}{2}m_1; \frac{\sqrt{3}}{2}m_2; \frac{\sqrt{3}}{2}m_3$;
D) $\frac{1}{2}\sqrt{2m_1^2 + 2m_2^2 - m_3^2}; \frac{1}{2}\sqrt{2m_1^2 + 2m_3^2 - m_2^2}$; $\frac{1}{2}\sqrt{2m_2^2 + 2m_3^2 - m_1^2}$

14. a, b manfiy butun sonlar uchun $a = b + 5$ va $a + b - c = 13$ bo`lsa, c ning qiymatini toping.
A) –20 B) –10 C) –17 D) –19

15. Agar $\int_a^b (4x + 5)dx = 225$ va $a + b = 10$ bo`lsa, $b - a$ ni toping.
A) 6 B) 2 C) 7 D) 9

16. Amfiteatr qatorlari soni 10 ta bo`lib, har bir keyingi qatordagi o`rinlar soni o`zidan oldingi qatordagidan 20 ta ortiq. Agar oxirgi qatorda 280 ta o`rin bo`lsa, amfiteatr necha o`rinlik?
A) 2800 B) 1900 C) 2400 D) 2100

17. Agar $a > 0$ bo`1sa, $y = \frac{a}{|x-a|}$ funksiyaning vertikal asimptotasini toping.
A) $y = -a$ B) $x = -a$ C) $x = a$ D) $y = 1 - a$

18. $\int_1^2 -4x^{-4}dx$ integralni hisoblang.
A) $1\frac{1}{6}$ B) $1\frac{5}{6}$ C) $-\frac{1}{6}$ D) $-1\frac{1}{6}$

19. $log_2 10 \cdot lg4$ ni hisoblang.
A) $lg40$ B) 1 C) 2 D) 3

20. Radiusi 3 ga teng bo`lgan aylanaga ichki chizilgan uchburchakning 30° li burchagi qarshisidagi tomon uzunligini toping.
A) 3 B) 6 C) 2 D) $\sqrt{2}$

21. $21:7 = x:2\frac{1}{3}$ tenglamani yeching.
A) $2\frac{1}{3}$ B) 7 C) $\frac{1}{7}$ D) $\frac{7}{9}$

22. $log_X 4(1{,}75 - \sqrt{3}) = 2$ tenglama ildizlari yig`indisini toping.
A) $\sqrt{3} - 2$ B) 0 C) $2 - \sqrt{3}$ D) $2\sqrt{3}$

23. To`g`ri tenglikni aniqlang.
A) $(-5^2)^{\frac{1}{2}} = -5$
B) $\sqrt[3]{log_2 \frac{1}{256}} = -2$
C) $\frac{4(x^2-4)}{5(x-2)} = \frac{4}{5}(x+2), x \epsilon R$
D) $(4\sin^2\frac{7\pi}{9} + 4\sin^2\frac{5\pi}{18} + 4cos4\left(\pi + \frac{\pi}{4}\right))^0 = 1$

24. $\int_{-1}^{1}(2x^5 - 3x^3 + x + 1)dx$ aniq integralni hisoblang.
A) $\frac{5}{24}$ B) $\frac{3}{4}$ C) 2 D) $\frac{7}{3}$

25. Markazi M(2; 5) nuqtada bo`lib, koordinata boshidan o`tuvchi aylana tenglamasi ko`rinishini toping.
A) $x^2 + y^2 - 4x - 10y = 0$
B) $x^2 + y^2 - 4x + 10y = 0$
C) $x^2 + y^2 - 4x - 10y = 9$
D) $x^2 + y^2 - 4x - 10y = 29$

26. $cos3 + \cos\{\pi\}$ ifodaning qiymati nechaga teng? (bunda$\{x\} - x$ kasr qism)
A) 0 B) 1 C) 0,5 D) –1

27. Quyidagi keltirilgan jumlalardan noto`g`risini toping.
A) Uchburchakning istalgan bir tomoni qolgan ikki tomoni yig`indisidan kichik
B) Burchak bissektrisasining ixtiyoriy nuqtasidan burchak tomonlarigacha bo`lgan masofalar o`zaro teng.
C) Uchburchakning katta burchagi qarshisida katta tomon yotadi
D) Uchburchakning tashqi burchaklari har doim o`tmas bo`ladi

28. M nuqta $ABCA_1B_1C_1$ muntazam prizma ABC asosidagi BC tomonining o`rtasi bo`lsin. Prizmaning yon qirrasi $\sqrt{11}$ ga, asosining tomonlari 16 ga teng bo`lsa, $B_1M$ to`g`ri chiziq va ABB_1A_1 yon yoqi orasidagi burchakning sinusini toping.
A) $\frac{1}{2}$ B) 0,6 C) $\frac{2}{3}$ D) 0,8

29. Juft sondagi hadlardan tashkil topgan arifmetik progressiyaning ayirmasi 3 ga teng. Toq nomerli hadlar yig`indisi va juft nomerli hadlar yig`indisi mos ravishda 16 va 28 ga teng bo`lsa, uning barcha hadlari nechta?
A) 12 B) 8 C) 6 D) 10

30.$\overline{ab}$ va $\overline{ba}$ ikki xonali sonlar. Agar $\overline{ab} - \overline{ba} = 36$ bo`lsa, $a^2 + b^2 - 2ab$ ning qiymatini toping.
A) 16 B) 36 C) 9 D) 25

31. 111, 213, 22, 333 butun sonlarni yozish mumkin bo`lgan eng kichik asosli sanoq sistemasida shu sonlar yig`indisini toping.
A) 2011 B) 1123 C) 10010 D) 1234

32. A1=5, A2=10, B1=7, B2=8 bo`lsin. Natijani 10 ga teng bo`ladigan formulani aniqlang.
A) =СЧЕТЕСЛИ(A1:B2;"<7")
B) =СТЕПЕНЬ(B2;A1+1)
C) =МИН(–A1–B1;A2–B1)
D) =МАКС(ABS(A1)–B2;A2)

33. Sinovdan o`tkazish muddatiga ega bo`lgan dasturlar–bu…
A) Freeware B) Shareware
C) Hardware D) Software

34. MS Excel. =ОСТАТ(–16;4)–ЗНАЧЕН(ЗАМЕНИТЬ(СЦЕПИТЬ(2; 4);2; 2;1)) hisoblash amalga oshirilgandagi qiymatni toping.
A) -23 B) 19 C) -30 D) -21

35. Paskal tilida qaysi javobda A[k]=k formula orqali aniqlangan N ta elementli massivning elementlari qiymatini kamayish tartibida ekranga chiqaruvchi dastur lavhasi yozilgan?
A) For k:=1 downto N do writeln(A[k]);
B) For x:=N downto 1 do writeln (A[x]);
C) For m:=1 to N do writeln(A[m]);
D) For j:=S to 1 do writeln (A[N–j+1]);

36. Microsoft Word dasturining fayl kengaytmasi qaysi javobda to`g`ri keltirilgan.
A) doc B) xls C) rar D) img

Variant 117.

1. Biror ikki xonali son va uning raqamlari o`rnini almashtirib, ularni qo`shganda biror sonning kvadrati bo`ladigan barcha ikki xonali sonlarni toping.
A) 29, 38, 47, 56, 65, 74, 83, 92
B) 29, 35, 45, 56, 65, 74, 83, 92
C) 29, 32, 47, 56, 65, 74, 83, 92
D) 29, 38, 45, 56, 65, 74, 83, 92

2. $log_{\frac{\sqrt{3}+1}{2}}(28 - 16\sqrt{3})$ ni hisoblang.
A) 6 B) –4 C) 4 D) –5

3.Axborot– resurs markazida 15 ta kompyuter o`rnatilmoqda, bunda ayrimlari kabel bilan ulanmoqda.

Har bir kompyuterdan 4 kabel chiqishi lozim bo`lsa, jami bo`lib nechta kabel kerak?
A) 24 B) 30 C) 40 D) 60

4. $\begin{cases} |6+x| \le 10, \\ |2x+7| \ge 15 \end{cases}$ tengsizliklar sistemasi nechta butun yechimga ega?
A) 8 B) 4 C) 6 D) 7

5. Piramidaning asosi tomoni $6\sqrt{3}$ ga va o`tkir burchagi $30°$ ga teng bo`lgan rombdan iborat. Piramidaga yasovchisi asos tekisligi bilan $45°$ li burchak tashkil etuvchi konus ichki chizilgan. Konusning hajmini toping.
A) $\frac{27\sqrt{3}\pi}{8}$ B) $\frac{3\pi}{4}$ C) $\frac{9\sqrt{3}\pi}{16}$ D) $\frac{3\pi}{8}$

6. Muntazam o`noltiburchakli piramidaning yon qirrasi 10 ga, piramidaning balandligi 6 ga teng. Piramidaga tashqi chizilgan sferaning radiusini toping.
A) 7 B) 8 C) $8\frac{2}{3}$ D) $8\frac{1}{3}$

7. Birinchi poyezdda 792 ta, ikkinchi poyezdda 864 ta, Uchinchi poyezdda 936 ta yo`lovchilar uchun joy bor. Agar vagonlardagi yo`lovchilar uchun mo`jjallangan joylarning soni bir xil bo`lsa, har bir poyezd eng kamida nechta vagonga ega bo`ladi?
A) 11, 12, 13 B) 9; 12; 24
C) 8; 16; 24 D) 11, 13, 14

8. $\frac{mn}{n^2+12m^2} = \frac{1}{7}$ ekanligi ma`lum bo`lsa, $\frac{3mn}{2n^2-5m^2}$ ni toping.
A) $1\frac{5}{12}$ B) $\frac{9}{13}$ C) $\frac{4}{9}$ yoki $\frac{9}{13}$ D) $\frac{4}{9}$ yoki $\frac{12}{17}$

9. $0,(\overline{7a})$ davriy kasrning qiymati $\frac{8}{11}$ ga teng bo`lsa, a ning qiymatini toping. (bu yerda $\overline{7a}$ ikki xonali son)
A) 2 B) 5 C) 0 D) 7

10. To`g`ri to`rtburchakning eni 16% ga orttirildi, bo`yi esa 16% ga kamaytirildi. Natijada uning yuzi qanday o`zgaradi?
A) 2,56% ga ortadi B) 2,56% ga kamayadi
C) 1,6% ga ortadi D) o`zgarmaydi

11. Dastlabki sakkizta natural sonlar yig`indisining kvadrati 1296 ga teng bo`lsa, shu sonlar kublarining yig`indisini toping.
A) 1296 B) 287496 C) 4356 D) 46656

12. Oxirgi raqami 1 bo`lgan va $[47; 350]$ kesmaga tegishli bo`lgan barcha natural sonlar yig`indisini toping.
A) 4877 B) 5880 C) 5539 D) 5208

13. Agar $x + \frac{1}{x} = 3$ bo`lsa, $x^4 - 7x^2 + 3$ ifodaning qiymatini toping.
A) 3 B) 5 C) 4 D) 2

14. $2x^3 - 5x^2 + 3x + 42 = 0$ tenglamaning haqiqiy ildizi x_0 bo`lsa, $\frac{x_0+5}{3}$ ning qiymatini toping.
A) $\frac{7}{3}$ B) 2 C) 1 D) $\frac{4}{3}$

15. $y = \frac{\sqrt{6x-x^2-5}+\sqrt{x-3}}{\sqrt{x^2+8x+18}}$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.
A) [1;3] B) [1; 5] C) [3; 5] D) $[5; \infty)$

16. $y = 1 - \sqrt{9 - \sqrt{2x^2 + 6\sqrt{2}x + 9}}$ funksiyaning qiymatlat sohasiga tegishli bo`lmagan eng kichik natural va eng katta manfiy butun sonlar ayirmasini toping.
A) 4 B) 5 C) -2 D) -6

17. Agar $f(x) = \frac{x^2+3x}{x^2+1}$ bo`lsa, $f'(0)$ ni toping.
A) 5 B) 3 C) 4 D) 0

18. $\int \frac{dx}{\sqrt{9-x^2}}$ ni hisoblang.
A) $\frac{1}{3}\arcsin\frac{x}{3} + C$ B) $\arcsin\frac{x}{3} + C$
C) $\frac{1}{3}arcsinx + C$ D) $arcsinx + C$

19. AB kesmaning bir tomonida $AA_1 = 3$ va $BB_1 = 1$ perpendikulyar o`tkazilgan. $A_1B$ va $AB_1$ to`g`ri chiziqlarning kesishish nuqtasidan AB kesmagacha bo`lgan masofani toping.
A) 0,25 B) 1,2 C) 1,5 D) 0,75

20. Balandligi h ga yon yoqi va asos tekisligi orasidagi burchak $60°$ ga teng bo`lgan muntazam piramidaga ichki chizilgan sharning hajmini toping.
A) $\frac{4h^3}{81}\pi$ B) $\frac{16h^3}{81}\pi$ C) $\frac{2h^3}{9}\pi$ D) $\frac{4h^3}{27}\pi$

21. Axborot– resurs markazida 30 ta kompyuter o`rnatilmoqda, bunda ayrimlari kabel bilan ulanmoqda. Har bir kompyuterdan 4 kabel chiqishi lozim bo`lsa, jami bo`lib nechta kabel kerak?
A) 56 B) 40 C) 60 D) 120

22. Quyida keltirilgan jumlalardan noto`g`risini toping.
A) Ikkita tomoni teng bo`lgan uchburchak teng yonli uchburchak deb ataladi
B) Teng yonli uchburchakning medianasi uning ham bissektrisasi, ham balandligi bo`ladi
C) O`z–o`zini kesishmaydigan yopiq siniq chiziq ko`pburchak deb ataladi
D) Uchburchak uchidan shu uch qarshisidagi tomon

yotgan to`g`ri chiziqqa tushirilgan perpendikulyar uchburchakning balandligi deyiladi.

23. ABCD teng yonli trapetsiyaning AC dioganali 8 ga teng va AD katta asos bilan 15° li burchak tashkil etadi. Trapetsiyaning yuzini toping.
A) 8 B) 20 C) 16 D) 18

24. Markazi O nuqtada bo`lgan aylanadan tashqaridagi P nuqtadan aylanani A va B nuqtalarda kesuvchi to`g`ri chiziq o`tkazilgan. Agar PA=3, AB=4 va PO=$\sqrt{46}$ bo`lsa, aylananing radiusini toping.
A) 3,5 B) 4 C) 2,5 D) 5

25. ABC uchburchakning AD medianasi AB va AC tomonlar bilan mos ravishda 60° va α burchaklarni tashkil qiladi. AB=$\sqrt{3}$, AC=3 bo`lsa, $sin\alpha$ ning qiymatini toping.
A) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ B) $\frac{1}{2}$ C) $\frac{1}{3}$ D) $\frac{2\sqrt{2}}{3}$

26. Agar $a = 11{,}4$ va $b = -1{,}4$ bo'lsa, $a^3 + a^2b - ab^2 - b^3$ ni toping.
A) 1280 B) 128 C) 1480 D) 1440

27. To'g'ri tenglikni aniqlang. ($a\epsilon R, \frac{m}{n}\epsilon Q$)
A) $(a+1)^{\frac{m}{n}} = \sqrt[n]{(a+1)^m}$ B) $\sqrt{(a+1)^2} = a+1$
C) $(a+1)^{-1} = \frac{1}{a+1}$ D) $\sqrt{(a^2+1)^2} = a^2+1$

28. Agar $\frac{x}{a} + \frac{y}{b} + \frac{z}{c} = 1$ va $\frac{a}{x} + \frac{b}{y} + \frac{c}{z} = 0$ bo`lsa, $\frac{a^2}{x^2} + \frac{b^2}{y^2} + \frac{c^2}{z}$ ni toping.
A) 1 B) 2 C) 0 D) 0,5

29. x_1 va x_2 sonlar $x^2 - 3x - 4 = 0$ tenglamaning ildizlari bo`lsa, $(x_1^2x_2 + x_1x_2^2)^2$ ni hisoblang.
A) 144 B) 196 C) 121 D) 169

30. Taqqoslang: $a = \frac{7}{15}, b = \frac{9}{20}$ va $c = \frac{8}{17}$
A) $c > a > b$ B) $a > c > b$
C) $b > c > a$ D) $c > b > a$

31. Paskal tilida quyidagi dastur lavhasi bajarilgach b o`zgaruvchi qiymatini aniqlang:
x:=–1; y:=–1; a:=0,1; IF(x*x+y>0) AND (a=1/10) THEN b:=true else b:=false;
A) 1 B) false C) –1 D) true

32. MS Excel. A1=30; B1=26; A2=25 bo`lsa, =СУММА(A1–B2; A2–B1) funksiyaning javobi 54 ga teng bo`lishi uchun B2 katakda qanday son bo`lishi kerak?
A) -25 B) -23 C) -10 D) -24

33. Qaysi atamalar axborotning xususiyatlari hisoblanadi?
A) analog, diskret B) diskret, qimmatli
C) qisqa, foydali D) ishonchli, analog

34. Rim sanoq sistemasida berilgan ifodalardan to`g`ri tenglikni aniqlang.
A) CCCXVII–VLI=CCLXX
B) CVLII+XXVIII=CLXXIV
C) IL·VLII=MMCCCIII
D) CXII:XXVIII=V

35. Brauzerning sarlavha satrida Web–sahifaning nomi aks ettiruvchi tegni ko`rsating.
A) <BOD/>…</BODY>
B) <HI>…</HI>
C) <TITLE>…<TITLE>
D) <JMG SRC=”nnme”>

36. Microsoft Excel formula satrida =ОСТАТ(–12;10)–ЗНАЧЕН(ЗАМЕНИТЬ(СЦЕПИТЬ(–3;4);2;21)) kiritilgan. Natijani toping.
A) 3 B) 9 C) 10 D) –10

Variant 118.

1. $\frac{5^x}{5^{x-4^x}} < 5$ tengsizlikning eng katta butun manfiy va eng kichik musbat yechimlari yig`indisini toping.
A) –1 B) 2 C) –3 D) 1

2. $y = \frac{|x^2-x-12|}{\sqrt{11x-x^2-18}}$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.
A) (4;9) B) (2;4] C) (2;9) D) (–3;9)

3. $y = (x+5)\cdot e^{x-5}$ funksiyaning minimum nuqtasini toping.
A) –8 B) –7 C) –6 D) –5

4. Agar $\int_a^b (3x^2+1)dx = 108$ va $a^2 + ab + b^2 = 17$ bo`lsa, $b - a$ ni toping.
A) 7 B) 9 C) 2 D) 6

5. Raqamlar yig`indisi 4 ga teng bo`lgan nechta uch xonali son bor?
A) 9 B) 8 C) 7 D) 10

6. $\sqrt[3]{26+15\sqrt{3}}\left(2-\sqrt{3}\right) + \sqrt[3]{9+\sqrt{80}}\cdot\sqrt[3]{9-\sqrt{80}}$ hisoblang.
A) $2+\sqrt{3}$ B) 2 C) $3+\sqrt{2}$ D) 4

7. $\begin{cases} EKUB(x;y) = 30 \\ \frac{x}{y} = \frac{3}{5} \end{cases}$ tenglamalar sistemasini yeching. $(x;y\epsilon N)$
A) $x = 60, y = 90$ B) $x = 90, y = 150$
C) $x = 30, y = 50$ D) $x = 450, y = 60$

8. Arifmetik progressiyaning ikkinchi va o`n yettinchi hadlari yig`indisi 14 ga , o`n to`qqizinchi va o`n yettinchi hadlari ayirmasi 6 ga teng. Progressiyaning dastlabki yigirmata hadi yig`indisini toping.
A) 200 B) 150 C) 220 D) 180

9. a ning qanday qiymatida
$P(x) = x^{12} - ax^6 + 7x^3 + 3x^2 - 6x - 3$
ko`phadning koeffitsiyentlari yig`indisi 13 ga teng bo`ladi?
A) -11 B) –8 C) 8 D) 11

10. Agar $\frac{2^x+12^x+14^x}{5^x+30^x+35^x} = \frac{375}{24}$ bo`lsa, x ni toping.
A) –5 B) –2 C) –4 D) –3

11. $(a^2 + b^2 + 9)x^2 + 2(a + b + 3)x + 3) = 0$ tenglama haqiqiy yechimlarga ega bo`lsa, $a + b$ ni toping.
A) 0 B) 3 C) –4 D) 6

12. $log_x 8 > 3$ tengsizlikni yeching.
A) $(2; \infty)$ B) $(2; 3)$ C) $(0; 2)$ D) $(1; 2)$

13. $\vec{a}, \vec{b}$ va $\vec{c}$ vektorlar $\vec{a} + \vec{b} + \vec{c} = 0$ shartni qanoatlantiradi. Agar $|\vec{a}| = 1, |\vec{b}| = 3, |\vec{c}| = 4$ bo`lsa, $\vec{a} \cdot \vec{b} + \vec{c} \cdot \vec{b} + \vec{a} \cdot \vec{c}$ ni hisoblang.
A) –26 B) 13 C) –13 D) 26

14. Raqamlari ko`paytmasi ikkilanganiga teng bo`lgan ikki xonali sonni toping.
A) 26 B) 36 C) 46 D) 56

15. Agar $a, b, c > 0$ va $a^b = 81, b^c = 2, a^c = 3$ teng bo`lsa, $(4c)^c$ ni toping.
A) 2 B) 8 C) 3 D) 4

16. a, b haqiqiy sonlar uchun qanday munosabat doimo o`rinli?
A) $|a - b| \le |a| - |b|$ B) $|a - b| > |a| - |b|$
C) $|a - b| \ge |a| - |b|$ D) $|a - b| < |a| - |b|$

17. Quyida keltirilgan jumlalardan noto`g`risini toping.
A) Hamma tomonlari o`zaro teng bo`lgan uchburchakning burchaklari teng bo`ladi
B) Teng yonli uchburchak asosiga tushurilgan bissektrisa uning ham medianasi, ham balandligi bo`ladi
C) Mediana–uchburchak tomonini teng ikkiga bo`luvchi chiziq
D) kesma o`rta perpendikulyarining ixtiyoriy nuqtasi kesma uchlaridan teng uzoqlikda joylashadi.

18. Agar [m]=[n] bo`lsa, ([x] va {x} mos ravishda x ning butun va kasr qismi), u holda m va n sonlar uchun qanday munosabat doim o`rinli?
A) $m, n \epsilon Z$ B) $m - n = \pm 1$
C) $m - n = \{m\} - \{n\}$ D) $m = n$

19. Asosi a ga va yon tomoni b ga teng bo`lgan teng yonli uchburchakning yon tomoniga tushurilgan bissektrisa uzunligini toping.
A) $l_b = \frac{a}{a+b}\sqrt{2a^2 + ab}$ B) $l_b = \frac{b}{a+b}\sqrt{2b^2 + ab}$
C) $l_b = \frac{b}{a+b}\sqrt{2a^2 + ab}$ D) $l_b = \frac{a}{a+b}\sqrt{2b^2 + ab}$

20. $0, (\overline{8a})$ davriy kasrning qiymati $\frac{28}{33}$ ga teng bo`lsa, a ning qiymatini toping.(bu yerda $\overline{8a}$ ikki xonali son)
A) 1 B) 0 C) 4 D) 7

21. “Tutgan balig`ining og`irligi qancha?” degan savolga baliqchi:”baliqning dumi 4 kg, boshi uning dumi hamda tanasi yarmining og`irligiga teng, tanasi esa boshi va dumining og`irligiga teng”, deb javob berdi. Baliqning og`irligini(kg) toping.
A) 24 B) 18 C) 6 D) 12

22. $x^4 - 5x^2 - 36 \le 0$ tengsizik nechta butun yechimga ega?
A) 3 B) 5 C) cheksiz ko`p D) 7

23. Agar $f(x) = ax^3 + 3x^2 + b$ va $f'(2) = 16$ bo`lsa, a ni toping.
A) 3 B) 1 C) $\frac{2}{3}$ D) $\frac{1}{3}$

24. $log_4\left(8\left(1 + \frac{1}{x}\right)^2\right) = \sqrt{2 - log_4 \frac{x}{x+1}} - log_4 \frac{1}{2}$ tenglamaning haqiqiy ildizlari yig`indisini toping. (Agar ildizi bitta bo`lsa, uni toping.)
A) $\sqrt{2} - \frac{1}{3}$ B) $\sqrt{2} + 1$ C) $\sqrt{2} + \frac{1}{3}$ D) $\sqrt{2} - 1$

25. $x^6 - 28x^3 + 27 \le 0$ tengsizlik nechta butun yechimga ega?
A) 1 B) 27 C) 3 D) cheksiz ko`p

26. $y = -2x - 5$ va $y = 2x + 3$ funksiyalarning grafiklari qaysi koordinatalar choragida kesishadi?
A) III B) I C) IV D) II

27. Chizmada (–11;3) oraliqda aniqlangan $f(x)$ funksiya hosilasining grafigi tasvirlangan. Nechta nuqtada $f(x)$ funksiya grafigiga urinma $y = x - 5$ to`g`ri chiziqqa parallel bo`ladi yoki u bilan ustma–ust tushadi?



A) 0 B) 6 C) 1 D) 4

28. M nuqta $ABCA_1B_1C_1$ muntazam prizma ABC asosidagi BC tomonning o`rtasi bo`lsin. Prizmaning yon qirrasi $\sqrt{44}$ ga, asosining tomonlari 16 ga teng bo`lsa, $B_1M$ to`g`ri chiziq va ABB_1A_1 yon yoqi orasidagi burchakning sinusini toping.
A) $\frac{1}{2}$ B) 0,6 C) $\frac{2}{3}$ D) 0,8

29. $y=(13x-7)lnx$ funksiyaning hosilasini toping.
A) $\frac{-13x-7}{x}$ B) $\frac{13x-7}{x}$ C) $13lnx+\frac{13x-7}{x}$ D) $-\frac{13x-7}{x}$

30. Ushbu $f(x)=\frac{2x+1}{x^2+x-6}$ funksiyaning boshlang`ich funksiyasini toping.
A) $\frac{2x^2}{(x-2)(x+3)}+C$ B) $\ln|x+3|+C$
C) $\ln(|x-1|\cdot|x+3|)+C$ D) $\ln(x-2)+C$

31. MSExcel. =ОСТАТ(2;5)–ЗНАЧЕН(ЗАМЕНИТЬ(СЦЕПИТЬ(–23; 6);1; 1;3)) funksiyaningnatijasinitoping.
A) –3234 B) –3634 C) –3632 D) –3226

32. Paskal. Dastur natijasini aniqlang.
Var a, b, k: integer;
Begin Randomize; a:=1; k:=1;
Repeat b:=trunk((k÷random(k))/k),
a:=a*b; k:k+1; until k>=6;
Write(a+b+k); readln; End.
A) Natijani aniqlab bo`lmaydi B) 40 C) 8 D) 16

33. Nashriyot tizim(Sistema)larida qaysi dasturlar ishlatiladi?
A) Adobe Page Maker, MS Acces, MathCAD.
B) Adobe Page Maker, Latex, Tex, Quark Xpress
C) Adobe Page Maker, Latex, MS Word, MS Excel
D) Adobe Page Maker, Quark Xpress, MS Excel

34. Quyidagi mulohazalardan rost qiymatga egalarini aniqlang:
1) Axborot ikki turga bo`linadi
2) Web–sahifalarni hosil qilish vositasi–brauzerlar.
3) Plotter–chizmalarni qog`ozga chiqaruvchi qurilma.
4) www.uz–milliy qidiruv tizimi emas
A) 1, 3 B) 4, 2 C) 1, 4 D) 2, 3

35. Qaysi atamalar axborotni turlari hisoblanadi
A) Ishonchli, analog B) analog, diskret
C) diskret, qimmatli D) qisqa foydali

36. Rost mulohazalarni mos sonlar yig`indisini rim sanoq sistemasida hisoblang.
CCXLVIII–"Ob havo holati uzluksiz axborotga misol bo`ladi"
XCVII–"Insonga uzluksiz ta`sir etuvchi axborotlar analog axborotlar deb ataladi"
hid, tovush, mimika"
A) CVLI B) CCCXCIV C) CCVCII D) CCCVL

Variant 119.

1. $ctg60°+ctg^260°+ctg^360°+\cdots$ yig`indini hisoblang.
A) $\frac{\sqrt{3}+1}{2}$ B) 1 C) $\frac{\sqrt{3}-1}{2}$ D) $\frac{\sqrt{3}}{3}$

2. $a^2<422$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi eng katta natural sonningnatural bo`luvchilari yig`indisini toping.
A) 45 B) 42 C) 48 D) 40

3. $\overline{ab}$ va $\overline{ba}$ ikki xonali sonlar. Agar $\overline{ab}-\overline{ba}=54$ bo`lsa, a^2+b^2-2ab ning qiymatini toping.
A) 36 B) 64 C) 16 D) 49

4. Chizmada (–11;3) oraliqda aniqlangan $f(x)$ funksiya hosilasining grafigi tasvirlangan. Nechta nuqtada $f(x)$ funksiya grafigiga urinma $y=3x-11$ to`g`ri chiziqqa parallel bo`ladi yoki u bilan ustma–ust tushadi?



A) 0 B) 4 C) 6 D) 1

5. $y=\frac{\sqrt{2x-1}+\sqrt{x-1}}{x^2-5x+8}$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.
A) $\left[\frac{1}{2};+\infty\right]$ B) $\left(-\infty;\frac{1}{2}\right]$ C) $[1;\infty)$ D) $\left[\frac{1}{2};1\right]$

6. Uchlari A(4;–2) va B(–1;3) nuqtalarga bo`lgan AB kesmaning uzunligini toping.
A) 60 B) 40 C) 50 D) 48

7. $y=x^2+7x-6$ funksiya grafigiga o`tkazilgan urinma $y=6x+9$ to`g`ri chiziqqa parallel. Urinish nuqtasining absissasini toping.
A) 0,5 B) –0,5 C) –3,5 D) –1,5

8. Agar $f(x)=lne^x-log_xx^2$ bo`lsa, $f'(1)+f(e)$ ning qiymatini toping.
A) e B) –2 C) $e-2$ D) $e-1$

9. Agar $f'(x)=-\frac{2}{e^x}, f(ln2)=0$ bo`lsa, $f(x)$ ni toping.
A) $-2e^{-x}-1$ B) $-2e^{-x}+2$
C) $2e^{-x}-1$ D) $2e^{-x}+2$

10. Dioganallari 90° burchak ostida kesishuvchi ABCD trapetsiyaning asoslari mos ravishda 7 va 2 ga

parallel to`g`ri chiziq o`tkazilgan. Ushbu to`g`ri chiziqning yon tomonlar bilanchegaralangan kesma uzunligini toping.
A) $2\frac{1}{3}$ B) $1\frac{1}{9}$ C) $3\frac{2}{9}$ D) $3\frac{1}{9}$

11. $\int e^{2sinx} \cdot cosxdx$ integralni hisoblang.
A) $cosx + e^{2sinx} + C$ B) $\frac{1}{2}e^{2sinx} + C$
C) $-\frac{1}{2}e^{2sinx} + C$ D) $\frac{e^{2sinx}}{2cosx} + C$

12. $\frac{0,(1)}{0,(5)} + \frac{0,(13)}{0,(65)} + \frac{0,(19)}{0,(95)} - 0,(9)$ ni hisoblang.
A) $-0,2$ B) $-0,4$ C) $-0,3$ D) $-0,1$

13. Sinfda 40 ta o`quvchi bor edi. Ulardan 32 tasi “Matematika” to`garagida, 21 tasi “Yosh rassomlar” To`garagida shug`ullanadi. 15 ta o`quvchi ikkalasida ham shug`ullanadi. Qancha o`quvchi ikkalasida ham shug`ullanmaydi?
A) 2 B) 28 C) 3 D) 38

14. $a_1, a_2, \ldots$ va $b_1, b_2, \ldots$ arifmetik progressiyalar uchun $a_1 = 2,5, b_1 = 7,5,\ a_{100} + b_{100} = 10$ bo`lsin. $a_1 + b_1,\ a_2 + b_2, \ldots$ ketma–ketlikning dastlabki 100 ta hadlat yig`indisini toping.
A) 100 B) 10 C) 0 D) 1000

15. Agar $tg4\alpha = -\frac{2}{5}$ bo`lsa, $ctg\alpha - tg\alpha - 2tg2\alpha$ ning qiymatini toping.
A) -10 B) -5 C) -8 D) 12

16.Markazi $M(4;-5)$ nuqtada bo`lib, koordinata boshidan o`tuvchi aylana tenglamasi ko`rinishini toping.
A) $x^2 + y^2 - 8x + 10y = 0$
B) $x^2 + y^2 - 8x - 10y = 0$
C) $x^2 + y^2 - 8x + 10y = 14$
D) $x^2 + y^2 - 8x + 10y = 25$

17. Koordinatalari $A(x;1)$ va $B(-1;-2)$ nuqtalarga bo`lgan AB kesmaning uzunligi 5 ga teng, x–ni toping.
A) 5 B) 3 C) 1 D) 6

18. Hisoblang: $cos20° + 2 \cdot \sin^2 55° - \sqrt{2} \cdot sin65°$
A) 0 B) $sin5°$ C) $\sqrt{2}$ D) 1

19. Agar $log_9 5 = a, log_{25} 8 = b$ bo`lsa, $log_2 3$ ni a va b orqali ifodalang.
A) $\frac{4}{3ab}$ B) $\frac{3ab}{4}$ C) $\frac{3}{4ab}$ D) $\frac{4ab}{3}$

20.a, b manfiy butun sonlar uchun $a = b + 4$ va $a + b - c = 13$ bo`lsa, c ning qiymatini toping.
A) 17 B) 11 C) -15 D) -19

21. $a + b + c = 5$ va $\frac{1}{a+b} + \frac{1}{b+c} + \frac{1}{c+a} = 1$ bo`lsa, $a + b + c - \left(\frac{a}{b+c} + \frac{b}{c+a} + \frac{c}{a+b}\right)$ ifodaning qiymatini toping.
A) 8 B) 3 C) a, b, c ga bog`liq D) 6

22. $xlg10^{x+3} + lg100 = 0$ tenglamaning ildizlari yig`indisini toping.
A) -1 B) -3 C) -2 D) -4

23. $\begin{cases} y = x^3 \\ y = cosx \end{cases}$ tenglamalar sistemasi nechta yechimga ega?
A) 3 B) 1 C) 2 D) 0

24. $x^2 - (k+1)x + k^2 + k - 32 = 0$ tenglama ildizlaridan biri 2 dan katta, ikkinchisi esa 2 dan kichik bo`lsa, $k$ ning butun qiymatlari yig`indisini toping.
A) 6 B) 5 C) 4 D) 0

25. $\frac{2}{x} + 3 \le \sqrt{41 - \frac{16}{x}}$ tengsizlikni yeching.
A) $x \ge 1$ B) $x < 0$ yoki $x \ge 1$
C) $x < 0$ D) $x \le 0$ yoki $x \ge 2$

26. Tomonlari 6 va 8 ga teng bo`lgan to`g`ri to`rtburchak birlik kvadratchalarga bo`lingan. Uning dioganali birlik kvadratchalarning uchlari bo`lmish nuqtalarning nechtasidan o`tadi?
A) 0 B) 3 C) 2 D) 4

27. $f(x) = 3cosx - 4sinx + 3$ funksiyaning qiymatlar sohasini toping.
A) $[-4;6]$ B) $[-3;7]$ C) $[-2;8]$ D) $[-5;5]$

28. Perimetri 64 ga teng bo`lgan to`g`ri burchakli uchburchak radiusi 5 ga teng bo`lgan aylanaga tashqi chizilgan. Gipotenuza uzunligini toping.
A) 16 B) 23 C) 27 D) 29

29. $f(x) = 3^{cosx}$ bo`lsa, $f'\left(\frac{\pi}{2}\right)$ ni hisoblang.
A) 0 B) $3ln3$ C) $-ln3$ D) $ln3$

30. Agar $f(x) = ax^3 + 4x^2 + b$ va $f'(2) = 28$ bo`lsa, a ni toping.
A) 1 B) 2 C) 4 D) 3

31. MS Excel. A1=3, B1=4 bo`lsa, =?(A1; B1)+ЗНАЧЕН(??(B1; A1)) formulaning natijasi 71 bo`lishi uchun? va ?? belgilarning o`rniga qo`yish mumkin bo`lgan funksiyalar to`g`ri berilgan javobni aniqlang.
A) Степень, Сцепить B) Степень, Степень
C) Макс, СтепеньD) Сумм, Степень

32. Quyidagihtml–hujjatkodiyozilishibo`yichakataklarketma–

ketsanalgandanechanchikatakdaog`mashriftlimarketlan ganro`yxatqo`llanilgan?
<table><tr><td colspan=2><a href><test> test</td><td rowspan=2><sup>
test <sup>
<td><tr><tr><td><img src=test jpg test </td></td></dl><sub><dt>test<sub></dl> </td></tr></table>
A) Ikkinchi katakda B) to`rtinchi katakda
C) Uchinchi katakda D) Birinchi katakda

33. Faqat rost mulohazalarni aniqlang va ularga tenglashtirilgan sonlar yig`indisini rim sanoq sistemasida hisoblang.
XCIX–“ Informatika odatda, Hardware va Software kabi ikki qismning birligi sifatida qaraladi”
XIX–“XX asrning 50–yillarida informatika faniga asos solingan”
IV–“Informatika, odatda, Hardware sifatida qaraladi”
A) CXVIII B) CXVII C) CXIX D) XXIII

34.Ali sakkizlik sanoq sistemasida $(54; 67)$ oraliqdagi barcha butun sonlarni yozib chiqdi. Vali esa shu sonlardan 6 raqami qatnashgan barcha sonlarni o`chirib tashladi. Qolgan sonlar yig`indisini sakkizlik sanoq sistemasida aniqlang va ikkilik sanoq sistemasiga o`tkazing.
A) 1011100 B) 1101101 C) 1011101 D) 11110010

35. Microsoft Excel 2003 dasturida $A1 = 6, A2 = A1*(-1), A3 = A2$*СТЕПЕНЬ (A1;2) Б A4=СЧЕТЕСЛИ(A1:A3;”>0) bo`lsa, A4 katakchadagi formula natijasini toping.
A) 36 B) 1 C) 6 D) 0

36. Quyidagi html–hujjat kodi yozilishi bo`yicha kataklar ketma–ket sanalganda nechanchi katakda og`ma shiriftli marketlangan ro`yxat qo`llanilgan?
<table><tr><td colspan=2> test</td><td rowspan=2>test
<td><td><cite>
test</cite></td></tr></table>
A) Birinchi katakda B) Ikkinchi katakda
C) Uchinchi katakda D) To`rtinchi katakda

Variant–120

1. $\int_{-1}^{1}(5x^5 - 3x^3 + x + 21)dx$ aniq integralni hisoblang.
A) $\frac{3}{4}$ B) 42 C) $\frac{5}{54}$ D) 1

2.$y = -3\sqrt{x}$ va $y = -3x^3$ egri chiziqlar bilan chegaralangan soha yuzini toping.
A) $\frac{5}{3}$ B) $\frac{5}{12}$ C) $\frac{5}{4}$ D) $\frac{5}{6}$

3. ABCD parallelogramm berilgan. M nuqta BD dioganalda yotadi, bunda MD:BM=2:1. Agar ADCM to`rtburchak yuzi 30 ga teng bo`lsa, ABCD parallelogramm yuzini toping.
A) 50 B) 60 C) 35 D) 45

4. $y = \sqrt[4]{\frac{7-x}{\sqrt[6]{4x^2-19x+12}}}$ funksiyaning aniqlanish sohasiga tegishli eng katta va eng kichik natural sonlar yig`indisini toping.
A) 12 B) 10 C) 13 D) 18

5. Uchburchakning ikki tomoni mos ravishda 1 va $\sqrt{10}$, uchinchi tomoni medianasi 2 ga teng. Uchburchak yuzini toping.
A) $\frac{\sqrt{15}}{2}$ B) 1,5 C) 5 D) $\frac{\sqrt{15}}{4}$

6. Dioganallari 90° burchak ostida kesishuvchi $ABCD$ trapetsiyaning asoslari mos ravishda 9 va 1 ga teng. Dioganallarning kesishish nuqtasidan asoslariga parallel to`g`ri chiziq o`tkazilgan. Ushbu to`g`ri chiziqning yon tomonlar bilan chegaralangan kesma uzunligini toping.
A) 1,8 B) 1,2 C) 1,6 D) 0,9

7. $y = g(x)$ funksiya D to`plamda yuqoridan chegaralangan bo`lsin. U holda qaysi munosabat ixtiyoriy $x \epsilon D$ uchun o`rinli?
A) biror K musbat haqiqiy son uchun $|g(x)| > K$
B) biror K musbat haqiqiy son uchun $|g(x)| < K$
C) biror K haqiqiy son uchun $|g(x)| > K$
D) biror K haqiqiy son uchun $|g(x)| < K$

8. Quyida keltirilgan jumlalardan noto`g`risini toping.
A) Uchburchakning kishik burchagi qarshisida kichik tomoni yotadi.
B) teng yonli uchburchakda teng tomonlar qarshisida teng burchaklar yotadi.
C) To`g`ri burchakli uchburchakning balandligi gipotenuzasining yarmiga teng.
D) Burchak bissektrisasining ixtiyoriy nuqtasidan burchak tomonlarigacha bo`lgan masofalar o`zaro teng.

9. $\overline{ab}$ va $\overline{ba}$ ikki xonali sonlar. Agar $\overline{ab} - \overline{ba} = 27$ bo`lsa, $a^2 + b^2 - 2ab$ ning qiymatini toping.
A) 9 B) 27 C) 16 D) 25

10. Bir guruh bolalarning o`rtacha og`irligi 40 kg ga teng. Qiz bolalarning o`rtacha og`irligi 35 kg, o`g`il bolalarning o`rtacha og`irligi esa 50 kg ligi ma`lum. Agar guruh a`zolarining 26 nafari qiz bolalar bo`lsa, o`g`il bolalar sonini toping.
A) 12 B) 13 C) 18 D) 11

11. Musbat sonlardan tashkil topigan $a_1, a_2, a_3, \ldots$ ketm–ketlik uchun $a_1 = a_2 = 1$ va barcha natural n larda $a_{n+2} = a_n a_{n+1}$ shartlar bajarilsin. Ketma–ketlikning 70– hadini toping.
A) 10 B) 1 C) 1050 D) 0

12. $y = \sin^2 x$ funksiya grafigi berilgan bo`lib, uni parallel ko`chirish yordamida $y = \sin^2(x + a) + b$ funksiya grafigi hosil qilingan. Bunday parallel ko`chirishda koordinata boshi qanday nuqtaga ko`chadi?
A) N(a;b) B) N(–a;b) C) N(a;–b) D) N(b;a)

13. Quyida keltirilgan jumlalardan noto`g`risini toping.
A) Kesma o`rta perpendikulyarining ixtiyoriy nuqtasi kesma uchlaridan teng uzoqlikda joylashgan
B) Agar ikki uchburchakning bir tomoni va ikki burchagi mos ravishda teng bo`lsa, bu uchburchaklar teng bo`ladi.
C) Teng tomonli uchburchak teng yonli uchburchak ham bo`ladi
D) Uchburchakning bir uchi va shu uchining qarshisidagi tomon o`rtasini tutashtiruvchi kesma uning medianasi deyiladi.

14.Rasmda ABC uchburchak berilgan. Agar $DE||BC$ va $EF||AB$ bo`lib, $S_{ADE} = 18, S_{EFC} = 12$ bo`lsa, $BDEF$ to`rtburchakning yuzini toping.



A) $12\sqrt{6}$ B) $15\sqrt{2}$ C) 15 D) $4\sqrt{2}$

15. Quti sirtining 75% ini bo`yash uchun 450 gramm bo`yoq sarflandi. Qutining qolgan qismini bo`yash uchun necha gramm bo`yoq kerak bo`ladi?
A) 150 B) 200 C) 175 D) 150

16. Agar $f(x) = lne^x - log_x x^2$ bo`lsa, $f'(1) + f(e)$ ning qiymatini toping.
A) e B) -2 C) $e - 1$ D) $e - 2$

17. $2\sin^2\alpha - 1$ ifodaningko`paytma ko`rinishiga keltiring.
A) $2\sin(\alpha - 30°) \cdot \cos(\alpha + 30°)$
B) $2\cos(\alpha - 30) \cdot \sin(\alpha + 30°)$
C) $-4\sin(45° - \alpha) \cdot \sin(\alpha + 45°)$
D) $-2\sin(45° - \alpha) \cdot \sin(\alpha + 45°)$

18. Qandaydir a, b, c uchun
$cos4x = a\cos^4 x + bcos^2 x + c$ ayniyat bajarilsa, $a + 2b + c$ ni toping.
A) 3 B) –7 C) 0 D) –4

19. $(x; y)$ juftlik $\begin{cases} EKUB(x; y) = 12 \\ \frac{x}{y} = \frac{3}{4} \end{cases}$ tenglamalar sistemasining yechimi bo`lsa, $x + y$ ni hisoblang $(x, y \epsilon N)$
A) 216 B) 168 C) 108 D) 84

20. $x^2 - (m-3)x - 5 = 0$ tenglamaning $x_1\ va\ x_2$ ildizlari orasida$x_1 + \frac{1}{x_2} = 2$ munosabat o`rinli. m ning qiymatini toping.
A) 2,5 B) –1,5 C) 3,5 D) –2,5

21. $(x^2 + 2x)^2 - (x + 1)^2 = 55$ tenglamaning haqiqiy ildizlari nechta?
A) 3 ta B) 2 ta C) 0 D) 1 ta

22. Rasmda $y = a \cdot \sqrt{(x-b)^2 + c} + d$ funksiya grafigi tasvirlangan. Quyidagi javoblardan qaysi biri doim noto`g`ri?



A) $a - bc \leq 0$ B) $2ad + bc > 0$
C) $a^2 bc \leq 0$ D) $a\sqrt{c} + d > 0$

23.$\left[\frac{2}{96}\right] \cdot 12 + \left[5\frac{2}{37}\right] \cdot 7{,}4 - [5{,}222\ldots] \cdot [2, (7)]$ ni hisoblang.
A) 0 B) 27 C) $16\frac{2}{3}$ D) $25\frac{5}{8}$

24. $\int_{-1}^{1}(2x^5 - 3x^3 + x + 1)dx$ aniq integralni hisoblang.
A) $\frac{7}{3}$ B) $\frac{3}{4}$ C) 2 D) $\frac{5}{54}$

25. AB kesmaning bir tomonida $AA_1 = 4$ va $BB_1 = 2$ perpendikulyar o`tkazilgan. $A_1B$ va $AB_1$ to`g`ri chiziqlarning kesishish nuqtasidan AB kesmagacha bo`lgan masofani toping.
A) $1\frac{2}{3}$ B) 2,4 C) $1\frac{1}{3}$ D) 1,5

26. Agar rasmda shtrixlangan soha yuzasi 12 sm^2 bo`lsa, ABCD parallelogrammning yuzini(sm^2) toping.



A) 18 B) 26 C) 30 D) 24

27.8 nafar o`quvchidan iborat guruhda 4 nafar a`zodan tashkil topgan qo`mitani tanlab olish kerak.Bu ishni nechta usulda amalga oshirsa bo`ladi?
A) 70 B) 120 C) 84 D) 32

28. Uchlari $A(-4;0), B(5;3)$ va $C(0;-2)$ nuqtalarda bo`lgan $ABC$ uchburchakning $BC$ tomonining $Ox$ o`qi bilan kesishish nuqtasi koordinatasini toping.
A) $(3;0)$ B) $(2{,}2;0)$ C) $(2;0)$ D) $(1{,}8;0)$

29. $x^3 - 0{,}1x = 0{,}3x^2$ tenglamaning haqiqiy ildizlari ko`paytmasini toping.
A) 0 B) 3 C) $-0{,}1$ D) 1

30. Muntazam to`rtburchakli piramidaga kub ichki chizilgan. Agar Piramida balandligi $18\sqrt{2}$ga va piramida asosining tomoni $12\sqrt{2}$ teng bo`lsa, kub qirrasini toping.
A) $6\sqrt{2}$ B) $3{,}6\sqrt{2}$ C) $7{,}2\sqrt{2}$ D) $4\sqrt{2}$

31. Alisher sakkizlik sanoq sistemasida (177; 217) oraliqdagi barcha butun sonlarni yozib chiqdi. G`anisheresa shu sonlardan 1 raqami qatnashgan barcha sonlarni o`chirib tashladi. Qolgan sonlar yig`indisini sakkizlik sanoq sistemasida aniqlang.
A) 1633 B) 723 C) 1132 D) 2157

32. Paskal. Dastur natijasini aniqlang.
Var a,k: byte; s,N:stiring; A:array[1..11] of byfe;
Begin Randomire; S:='INFORMATIKA'
A[1]:=Random(1)+1; A[2]:=trune(random)+I;
N:";For k:3 To 6 Do A[k]:=A[k+1]+[k+2];
For k:=1 To 6 Do N+copya, A[k], 1;
Write(N):readin:End.
A) IFMTK B) natijani aniqlab bo`lmaydi
C) NIFOAA D) IINFRT

33. A1=–3, A2=11, B1=–17, B2=30 bo`lsin. =MAKC(ABS(A1)+B2, A2+B1) komandasi kiritilsa natija nimaga teng bo`ladi?
A) 36 B) 40 C) 33 D) 24

34. A=""Mening kompyuterim" maxsus qobiq dasturdir"
B="Fayl nomida*, \, /belgilarini ishlatish mumkin emas"
C=" Kompyuter ishiga zarar keltiruvchi dasturlar antivirus dasturlar deb ataladi,"Shu mulohazalar asosida quyidagi mantiqiy ifodaning natijasini toping:
(not A or B) and (C or not B) or not C
A) Ifodada xatolik bor
B) Yolg`on
C) Rost
D) Ba`zi mulohazalarning qiymatini aniqlab bo`lmaydi

35. Rost mulohazalarni mos sonlar yig`indisini rim sanoq sistemasida hisoblang.
CXXIX–"Vaqt uzluksiz axborotdir"
XCVII–"Insonga uzluksiz ta`sir etuvchi axborotlar diskert axborotlar deb ataladi"
XLIX–"Axborot xususiyatlariga quyidagilar kiradi: qimmatlilik, ishonchlilik, to`liqlik"
A) CCXXVI B) CXLVI C) CCXXVIII D) CCLXXV

36. Ketma–ketlikdagi qonuniyatni aniqlab nuqtalar o`rniga mos keladigan sonni qo`ying.
3, 7, 15, 31, …
A) 45 B) 63 C) 54 D) 42

Variant 121

1. Radiusi 5 ga teng bo`lgan aylanaga ichki chizilgan uchburchakning $60°$ li burchagi qarshisidagi tomon uzunligini toping.
A) $5\sqrt{3}$ B) 5 C) 10 D) $5\sqrt{2}$

2. To`g`ri burchakli trapetsiya o`tkir burchagining kosinusi $\frac{2}{3}$ bo`lsa, katta burchagining tangensini toping.
A) $-\frac{13}{12}$ B) $\pm\frac{\sqrt{5}}{2}$ C) $\frac{3}{2}$ D) $-\frac{\sqrt{5}}{2}$

3. Qandaydir a, b, c uchun $cos4x = a\cos^4 x + bcos^2 x + c$ ayniyat bajarilsa, $a+b$ ni toping.
A) 3 B) 1 C) –4 D) 0

4. $3-4+5-6+..+2017-2018+2019$ ni hisoblang.
A) –1011 B) 1011 C) –1008 D) 1010

5. Quti sirtini 75% bo`yash uchun 450 gramm bo`yoq sarflangan bo`lsa, quti sirtini to`la bo`yash uchun necha gramm bo`yoq kerak bo`ladi?
A) 650 B) 500 C) 600 D) 625

6. Agar $\begin{cases} x_2 + x_3 + \cdots + x_{10} + x_{11} = 1 \\ x_1 + x_3 + \cdots + x_{10} + x_{11} = 2 \\ \cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots \\ x_1 + x_2 + x_3 + \cdots + x_{10} = 11 \end{cases}$ bo`lsa, x_{11}nechaga teng?
A) –4,4 B) 8,3 C) 6,3 D) 5,4

7. $f(x) = \cos^4 x + \sin^4 x$ funksiya berilgan. Agar $sin2\alpha = \frac{2}{3}$ ekanligi ma`lum bo`lsa, $f(\alpha)$ ni toping.
A) $\frac{1}{3}$ B) $\frac{7}{9}$ C) $\frac{2}{3}$ D) 1

8. $\frac{\lg(2cos15°)}{\lg(2sin15°)}$ ni hisoblang.
A) 3 B) –1 C) 2 D) 1

9. x, y butun sonlar uchun $-2 \le x < 4$ va $-5 \le y < 4$ bo`lsa, $x^2 - y^2$ ning eng kichik qiymatini toping.
A) 21 B) 8 C) 10 D) 32

10. $f(x) = a^2 \frac{(x-b)(x-c)}{(a-b)(a-c)} + b^2 \frac{(x-a)(x-c)}{(b-a)(b-c)} + c^2 \frac{(x-a)(x-b)}{(c-a)(c-b)}$ funksiyaning $x = -1$ da hosilasini toping.
(Bu yerda $(a-b)(a-c)(b-c) \neq 0$)

A) a, b, c ga bog`liq B) –1 C) 0 D) –2

11. Piramidaning asosi tomoni $2\sqrt{3}$ va o`tkir burchagi 30° ga teng bo`lgan rombdan iborat. Ushbu piramidaga ichki chizilgan konusning yasovchisi asos tekisligi bilan 60° li burchak tashkil etadi. Konus hajmining piramida hajmiga nisbatini toping.
A) $\frac{\pi}{4}$ B) $\frac{\pi}{8}$ C) $\frac{\sqrt{3}\pi}{4}$ D) $\frac{\sqrt{3}\pi}{8}$

12. Konusning yasovchisi $\sqrt{3}$ ga teng. Konusning uchidan unga ichki chizilgan shar markazigacha bo`lgan masofa 1 ga teng. Konus asosi radiusining shar radiusiga nisbatini toping.
A) 1 B) $\frac{1}{\sqrt{3}}$ C) $\sqrt{3}$ D) 3

13. $ABCD$ parallelogramm uchta uchining koordinatalari ma`lum: $A(0;1), B(1;3), C(13;3)$. D uchining absissasini toping.
A) 7 B) 13 C) 12 D) 5

14. Agar $f(x) = ax^3 + 2x^2 + b$ va $f'(2) = 32$ bo`lsa, a ni toping.
A) 4 B) 1 C) 3 D) 2

15. $\int_1^8 \frac{4}{x} dx$ integralni hisoblang.
A) 12ln2 B) 6 ln2 C) 18ln2 D) 12ln4

16. Agar $f(2x) = 6x^3 + 4x^2 + 2x + 1$ bo`lsa, $f'(2) - f(2)$ ni toping.
A) 2 B) 3 C) 1 D) 4

17. ABCD trapetsiya berilgan bo`lib, AD||BC. Agar AK=KM=MB, DN=NL=LC va $S_{ABCD} = 30\ sm^2$ bo`lsa, u holda S_{KMNL} ni (sm^2) toping.



A) 7,5 B) 15 C) 10 D) 20

18.ABCD (AD||BC) trapetsiyada AD=10, BC=6. Trapetsiya balandligi 6 ga teng. AD asosi, dioganallar yuzini toping.
A) 20 B) 12 C) 16 D) 18

19. $\frac{x^2+x-5}{x} + \frac{3x}{x^2+x-5} = -4$ tenglama nechta butun ildizga ega?
A) 4 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 1 ta

20. $x < 6$ bo`lsa, $3x + 4y - 6 = 0$ tenglamadan y ning qiymatlarini toping.
A) $y > -3$ B) $y > -6$ C) $y < -6$ D) $-1 < y < 1$

21. $y = 4x - 13$ va $y = -5 - 6x$ funksiyalarning grafiklari qaysi koordinatalar choragida kesishadi?
A) II B) III C) IV D) I

22. $y = \frac{x^2+2}{x}$ funksiyaning qiymatlar sohasiga tegishli bo`lmagan butun sonlar yig`indisini toping.
A) 1 B) 0 C) –2 D) –1

23. $y = f(x)$ funksiya D to`plamda no`qatiy kamayuvchi bo`lsin. D to`plamdan olingan ixtiyoriy a, b elementlari uchun $(a > b)$ quyidagi munosabatlardan qaysi biri o`rinli?
A) $f(a) \le f(b)$ B) $f(b) < f(a)$
C) $f(a) = f(b)$ D) $f(b) \le f(a)$

24. $\left[\frac{1000}{8^2}\right] \cdot 8$ ni hisoblang. Bu yerda [a]–a sonning butun qismi.
A) 100 B) 125 C) 140 D) 120

25. Bir guruh bolalarning o`rtacha og`irligi 40 kg ga teng. Qiz bolalarning o`rtacha og`irligi 35 kg, o`g`il bolalarning o`rtacha og`irligi esa 50 kg ligi ma`lum. Agar guruh a`zolarining 12 nafari o`g`il bolalar bo`lsa, qiz bolalar sonini toping.
A) 26 B) 24 C) 28 D) 22

26. $\frac{tg(\alpha+\beta)-tg\alpha-tg\beta}{tg\beta \cdot tg(\alpha+\beta)}$ ifodaning son qiymatini toping.
bu yerda $\alpha = \frac{2\pi}{3}, \beta = \frac{3\pi}{5}$
A) –1 B) $-\sqrt{3}$ C) $\sqrt{3}$ D) 1

27. Qandaydir a, b, c uchun $cos4x = a\cos^4 x + bcos^2 x + c$ ayniyat bajarilsa, $a + 2b$ ni toping.
A) 3 B) 0 C) –8 D) –4

28. Agar $log_9 25 = a, log_{25} 8 = b$ bo`lsa, $log_2 3$ ni a va b orqali ifodalang.
A) $\frac{3ab}{4}$ B) $\frac{2}{3ab}$ C) $\frac{3}{2ab}$ D) $\frac{2ab}{3}$

29. Qandaydir a, b uchun $(x+2)(x+a) = x^2 + bx + 6$ ayniyat bajarilsa, $4a - 3b$ ni toping.
A) 0 B) –3 C) 1 D) 9

30. Barcha musbat a, b, c sonlar uchun $\frac{a}{b}+\frac{b}{c}+\frac{c}{a}$ ifodaning eng kichik qiymatini toping.
A) 2,5 B) 1 C) 1,5 D) 3

31. A=”BIOS dasturi kompyuterning doimiy xotirasida joylashgan “B=Software–sinovdan o`tkazish muddatiga ega bo`lgan dasturlardir. “C=” Windows yo`lboshlovchisining ishlashiga Explorer exe dasturi javob beradi” Shu mulohazalar asosida quyidagi mantiqiy ifodaning natijasini toping.

$$\neg A \vee (-C \wedge B)$$

A) rost
B) Yolg`on
C) Ifodada xatolik bor
D) Ba`zi mulohazalarning qiymatini aniqlab bo`lmaydi

32. MS Excel. ?(3;4)+ЗНАЧЕН(??(3; 4)) formulaning natijasi 71 bo`lishi uchun? va ?? belgilarning o`rniga qo`yish mumkin bo`lgan funksiyalar to`g`ri berilgan javobni aniqlang.
A) Степень, Сцепить B) Степень, Степень
C) Макс, СтепеньD) Сумм, Степень

33. Qobil sakkizlik sanoq sistemasida (73;100) oraliqdagi barcha butun sonlarni yozib chiqdi. Qodir esa shu sonlardan 6 raqam qatnashgan barcha sonlarni o`chirib tashladi. Qolgan sonlarni yig`indisini sakkizlik sanoq sistemasida aniqlang va bechlik sanoq sistemasiga o`tkazing.
A) 430 B) 341 C) 343 D) 143

34. Paskal dastur natijasini aniqlang.
Var N;k: word, S String;
Begin Randomize; S=’DTM–2017’
n:random Post(‘DT’,s)+pos(‘21’,s));+1;
S:=a[n]+s[n+1];
K:=2+Random(1)+1
Write(S/k+1);readin;End
A) D B) natijani aniqlab bo`lmaydi C) T D) M

35. Bir terabayt necha gigabaytga teng?
A) 2^{25} gigabayt B) 2^{10} gigabayt
C) 2^{30} gigabayt D) 2^{20} gigabayt

36. Raqamli signalni analogli signalga va aksincha aylantirib beruvchi qurilma nomini toping.
A) deshifrator B) telefaks
C) modem D) shifrator

Variant 122.

1. $\{x|x\epsilon N, x^2 < 29{,}9\}$ to`plamning nechta qism–to`plamlari mavjud?
A) 5 B) 29 C) 32 D) 16

2. Qandaydir a, b, c uchun $cos4x = \text{acos}^4 x + bcos^2 x + c$ ayniyat bajarilsa, b ni toping.
A) 8 B) 4 C) –8 D) –4

3. $y=\frac{x^2+4}{x}$ funksiyaning qiymatlar sohasini toping.
A) $(-\infty;-4)\cup(4;\infty)$ B) $(-\infty;-4]\cup[4;\infty)$
C) $(-\infty;0)\cup[4;\infty)$ D) $[4;\infty)$

4. ABCD parallelogramm berilgan. m nuqta BD dioganalda yotadi, bunda MD:BM=2:1. Agar ADCM to`rtburchak yuzi 32 ga teng bo`lsa, ABCD parallelogramm yuzini toping.
A) 36 B) 52 C) 60 D) 48

5. $\left(\frac{x-2y}{x^3+y^3}+\frac{y}{x^3-x^2y+xy^2}\right)\cdot\frac{x^3-xy^2}{x^2+y^2}+\frac{2y^2}{x^3+x^2y+xy^2+y^3}$ ifodani soddalashtiring.
A) 0 B) $\frac{1}{x}+\frac{1}{y}$ C) $\frac{1}{x+y}$ D) 1

6. $\frac{1}{a(a-b)(a-c)}+\frac{1}{b(b-a)(b-c)}+\frac{1}{c(c-a)(c-b)}$ ifodani soddalashtiring.
A) $\frac{1}{abc}$ B) $\frac{abc}{2}$ C) $-\frac{1}{abc}$ D) $\frac{1}{bc}$

7. Agar $\frac{3^x+6^x+9^x}{5^x+10^x+15^x}=\frac{50}{18}$ bo`lsa, x ni toping.
A) –2 B) –3 C) –4 D) –5

8. $x^2-\sqrt{x^2-10x+25}=-5$ tenglamaning haqiqiy ildizlari yig`indisini toping.
A) –2 B) 0 C) –1 D) 1

9. ABCD to`rtburchak aylanaga ichki chizilgan ABC burchak 114° ga, CAD burchak 54° ga teng bo`lsa, ABD burchakning gradus o`lchovini toping.
A) 56° B) 72° C) 50° D) 60°

10. $x^{\lg^2 x-4lgx+1} > 10000$ tengsizlikning eng kichik natural yechimini toping.
A) 10000 B) 10001 C) 100 D) 1001

11. $\frac{|x+2|+x}{x+1} > 1$ tengsizlikning manfiy butun yechimlarini toping.
A) cheksiz ko`p B) 3 C) 1 D) 2

12. $R=9$ va $r=1$ radiusli ikkita aylana bir–biriga va to`g`ri chiziqqa urinadi. Shu to`g`ri chiziqqa va aylanalarga urinadigan kichik aylana radiusini toping.



A) $\frac{36}{}$ B) $\frac{4}{}$ C) $\frac{16}{}$ D) $\frac{9}{}$

13. ABCD teng yonli trapetsiyaning AC dioganali 8 ga teng va u AD katta asos bilan 22,5° li burchak tashkil etadi. Trapetsiya yuzini toping.
A) 16 B) 8 C) $16\sqrt{2}$ D) $8\sqrt{2}$

14. Uchburchakning balandligi $\sqrt{6}$ ga teng va u asosni 2:6 nisbatda bo`ladi. Balandlikka parallel bo`lib, uchburchakni tengdosh bo`laklarga bo`luvchi kesma uzunligini toping.
A) 2,2 B) 1,8 C) 1 D) 2

15. Muntazam to`rtburchakli piramidaga kub ichki chizilgan. Agar piramida balandligi $16\sqrt{2}$ ga va piramida asosining tomoni $12\sqrt{2}$ ga teng bo`lsa, kub qirrasini toping.
A) $7\sqrt{2}$ B) $\frac{48\sqrt{2}}{7}$ C) $\frac{36\sqrt{2}}{7}$ D) $6\sqrt{2}$

16. $\begin{cases} |x+7| \le 13 \\ |2x+9| \ge 21 \end{cases}$ tengsizliklar sistemasi nechta butun yechimga ega?
A) 4 B) 7 C) 6 D) 8

17. Koordinatalari A(–2;0) B(4;0) va C(2;3) nuqtalarda bo`lgan uchburchakning $Ox$ o`qi atrofida aylanishidan hosil bo`lgan jismning hajmini toping.
A) 16π B) 18π C) 15π D) 12π

18. $\{x|x\epsilon N, -6{,}9 < x < 5{,}9\}$ to`plamni nechta usul bilan ikkita kesishmaydigan qism–to`plamlarga ajratish mumkin
A) 16 B) 8 C) 32 D) 11

19. $y = arcsin\frac{x-3}{2}$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.
A) [1; 5] B) [1;3] C) [1; 4] D) [1; 2]

20. Agar $f(x) = x^3 - 5x^2 + x + a$ va $f''(2) = f(2)$ bo`lsa, a ni toping.
A) 12 B) 10 C) 5 D) 6

21. $\int e^{3sinx} \cdot cosxdx$ integralni hisoblang.
A) $\frac{1}{3}e^{3sinx} + C$ B) $cosx + e^{3sinx} + C$
C) $-\frac{1}{3}e^{3sinx} + C$ D) $\frac{e^{3sinx}}{3cosx} + C$

22. ABCD to`g`ri to`rtburchak AC dioganali orqali ikkita ABC va ACD uchburchaklarga ajratilgan. Agar AB=6, AD=8 bo`lsa, ABC va ACD uchburchaklarga ichki chizilgan aylanalar markazlari orasidagi masofani toping.
A) 5 B) $\sqrt{5}$ C) $2\sqrt{5}$ D) 4

23. “Arximed pichog`i” deb ataluvchi shakl (shtrixlangan soha) ning yuzini toping. Bu yerda teng. O, O_1 va O_2 aylanalar markazlari.



A) π B) 3π C) 2π D) $\frac{\pi}{2}$

24. $2x^2 - 3x + 10$ va $16 - x^2$ ifodalari arifmetik progessiyaning ketma–ket hadlari bo`ladigan $x$ ning barcha qiymatlari yig`indisini toping.
A) 4 B) 3 C) 6 D) 2

25. $log_{\sqrt{3}-\sqrt{2}}(40 + 20\sqrt{6})$ ni hisoblang.
A) 4 B) -4 C) -5 D) 6

26. $P(x) = (3x-1)^{2017} \cdot (2x-1)^{2016} + (4x-3)^2 \cdot (6x-5)^2 + 2$ ko`phad koeffitsiyentlarining yig`insini toping.
A) $2^{2017} + 3$ B) $2^{2017} + 1$ C) 9 D) 16

27. $f(x) = a^2\frac{(x-b)(x-c)}{(a-b)(a-c)} + b^2\frac{(x-a)(x-c)}{(b-a)(b-c)} + c^2\frac{(x-a)(x-b)}{(c-a)(c-b)}$ funksiyaning $x = 3$ da hosilasini toping. (Bu yerda $(a-b)(a-c)(b-c) \neq 0$)
A) 0 B) a, b, c ga bog`liq C) 6 D) 4

28. Arifmetik progressiyada 10–hadi 7 ga, 7–hadi esa 10 ga teng. Progressiyaning 6 –hadini toping.
A) 14 B) 15 C) 11 D) 13

29. Chizmada $(-11; 3)$ oraliqda aniqlangan $f(x)$ funksiya hosilasining grafigini tasvirlang. Nechta nuqtada $f(x)$ funksiya grafigiga urinma $y = 2x - 5$ to`g`ri chiziqqa parallel bo`ladi yoki U bilan ustma–usttushadi?



A) 0 B) 6 C) 1 D) 4

30. $(a^2 + b^2 + 1)x^2 + 2(a + b + 1)x + 3 = 0$ tenglama haqiqiy yechimlarga ega bo`lsa, $3a - b$ ni toping.
A) –4 B) 2 C) –3 D) 3

31. A=” kompyuter qurilmalarini boshqaruvchi dasturlar drayverlar deyilar deb ataladi.”B=”Fayl nomida<, >, ? belgilarini ishlatish mumkin. “C=”Total Commander qobiq dasturdir. Shu

natijasini toping.

$$A \wedge \neg(C \vee \neg B)$$

A) Ifodada xatolik bor
B) Yolg`on
C) Rost
D) Ba`zi mulohazalarning qiymatini aniqlab bo`lmaydi

32. MS Excel. A1=3, B1=4 bo`lsa, =?(A1; B1)+ЗНАЧЕН(??(B1; A1)) formulaning natijasi 68 bo`lishi uchun? va ?? belgilarning o`rniga qo`yish mumkin bo`lgan funksiyalar to`g`ri berilgan javobni aniqlang.
A) Степень, Сцепить B) Степень, Степень
C) Макс, СтепеньD) Сумм, Степень

33. Paskal dasturlash tilida berilgan uchbu ifodaning qiymatini toping.
trund(sqrt(abs(trunk(5.5)+sqrt(100)*round(1.5)))
A) 4 B) 7 C) 5 D) 6

34. Olim sakkizlik sanoq sistemasida $(66; 77)$ oraliqdagi barcha butun sonlarni yozib chiqdi. Odil esa shu sonlardan 6 raqami qatnashgan barcha sonlarni o`chirib tashladi. Qolgan sonlar yig`indisini sakkizlik sanoq sistemasida aniqlang.
A) 214 B) 520 C) 424 D) 203

35.MSExcel. =ОСТАТ(2;5)–ЗНАЧЕН(ЗАМЕНИТЬ(СЦЕПИТЬ(–23; 6);3; 3;10)) funksiyaningnatijasinitoping.
A) 220 B) 364 C) 210 D) 226

36. Qanday teg yordamida HTML hujjatlarida hujjatning bir joydan boshqa joyiga o`tish yoki boshqa hujjatga o`tish mumkin?
A) < B > B) < A > C) < U > D) < I >

Variant 123.

1. $\frac{71^2-23^2+94\cdot 42}{62^2-32^2}$ ni hisoblang.
A) 3 B) $\frac{1}{3}$ C) 4 D) $\frac{5}{6}$

2. Mahsulotning bozordagi narhi uning tan narxidan 20% qimmat. Bozordagi maxsulot yaxshi sotilmagani uchun uning sotuvdagi narxi 55 ga kamaytirilganda narxi 285 so`m bo`lsa, uning tannarxini toping.
A) 210 B) 230 C) 270 D) 250

3. Dioganallari 90° burchak ostida kesishuvchi $ABCD$ trapetsiyaning asoslari mos ravishda 9 va 3 ga teng. Dioganallarning kesishish nuqtasidan asoslariga parallel to`g`ri chiziq o`tkazilgan. Ushbu to`g`ri chiziqning yon tomonlar bilan chegaralangan kesma uzunligini toping.
A) 3,6 B) 3,75 C) 4,25 D) 4,5

4. To`g`ri burchakli uchburchakning bitta kateti 13 ga teng, qolgan ttomonlari butun sonlardan iborat. Ularni toping.
A) 80, 81 B) 81, 82 C) 83, 84 D) 84, 85

5. O`tkir burchagi 45° ga, balandligi va katta asosining yig`indisi a ga teng bo`lgan teng yonli trapetsiyalar ichida eng katta yuzaga ega bo`lganining kichik asosini toping.
A) $\frac{3}{4}a$ B) $\frac{1}{4}a$ C) $\frac{7}{4}a$ D) $\frac{5}{4}a$

6. Dastlabki 10 ta tub son ketma–ket bir qatorga yozilib 6 ta raqam shunday o`chirildiki natijada eng katta son hosil bo`ldi. Shu sonning ikkinchi raqamini toping.
A) 9 B) 2 C) 1 D) 3

7. Bir necha matematiklar va 8 hafar fiziklardan tashkil topgan bir guruh olimlarning o`rtacha yoshi 40 ga teng. Matematiklarning o`rtacha yoshi 35 ga, fiziklarning o`rtacha yoshi esa 50 ga tengligi ma`lum bo`lsa, matematiklar sonini toping.
A) 14 B) 16 C) 18 D) 20

8. $\frac{1}{3}; -\frac{1}{4}; \frac{1}{5}; -\frac{1}{6}$; ... ketma–ketlikning umumiy hadi formulasini ko`rsating.
A) $a_n = \frac{(-1)^{n+1}}{n+1}$ B) $a_n = \frac{(-1)^{n+1}}{n+2}$
C) $a_n = \frac{(-1)^{n-1}}{n+1}$ D) $a_n = \frac{(-1n)^{n+1}}{n-2}$

9. Arifmetik progressiyaning ikkinchi va o`n yettinchi hadlari yig`indisi 32 ga , o`n to`qqizinchi va o`n yettinchi hadlari ayirmasi 6 ga teng. Progressiyaning dastlabki yigirmata hadi yig`indisini toping.
A) 400 B) 380 C) 250 D) 370

10. Ifodani soddalashtiring: $\frac{tg(\alpha+\beta)-tg\alpha-tg\beta}{tg\beta\cdot tg(\alpha+\beta)}$

$$\alpha, \beta \in (\frac{3\pi}{2}; 2\pi)$$

A) $tg\beta$ B) 1 C) $tg\alpha$ D) $-tg\alpha$

11. Agar $x = \frac{\sqrt{17+1}}{2}$ bo`lsa, $\frac{x^3-3x^2+8x-2}{x^2-x+1}$ kasrning qiymatini hisoblang.
A) $\sqrt{17}-2$ B) $\sqrt{17}+1$ C) $\sqrt{17}$ D) $\sqrt{17}-1$

12. $x^3 - 2x - 1 = 0$ tenglamaning haqiqiy ildizlari ko`paytmasini toping.
A) –2 B) 1 C) –1 D) 0

13. $log_2(x^2-4x)^2 = 2log_2(18-5x)$ tenglamaning katta ildizini toping.
A) 6 B) $\frac{\sqrt{73}-1}{2}$ C) 3 D) $\frac{1+\sqrt{73}}{2}$

14. $\frac{2^{x-1}-1}{2^{x+1}+1} < 2$ tengsizlikni yeching.
A) $\emptyset$ B) $(-\infty;\infty)$ C) $(0;\infty)$ D) $(-\infty;0)$

15. $f(x) = -3x^2 + 9x + t - 3$ funksiyaning maksimumi 5 ga teng. t ning qiymatini toping.
A) 1,75 B) 1 C) 2 D) 1,25

16. To`g`ri burchakli uchburchakning gipotenuzasi 25 ga, unga ichki chizilga aylana radiusi 4 ga teng. Uchburchakning perimetrini toping.
A) 51 B) 48 C) 45 D) 58

17. $5 - 6 + 7 - 8 + 9 - 10 + \cdots + 2015 - 2016 + 2017$ ni hisoblang.
A) –1006 B) 1011 C) –1011 D) 1010

18. To`p 2 m 43 sm balandlikdan tashlandi va yerga urilib, har gal balandligining 2/3 qismiga teng balandlikka ko`tarildi. To`p necha marta urilishidan keyin 32 sm balandlikka ko`tariladi? (32 sm dan yuqoriga o`tib ketadigan hollarni qaramang)
A) 4 B) 5 C) 7 D) 8

12. $x < 4$ bo`lsa, $3x + 2y - 6 = 0$ tenglamadan y ning qiymatlarini toping.
A) $-1 < y < 1$ B) $y > -6$ C) $y < -6$ D) $y > -3$

13. $\begin{cases} |4 + x| \leq 7 \\ |2x + 3| \geq 9 \end{cases}$ tengsizliklar sistemasi nechta butun yechimga ega?

14. Taqqoslang: $a = 40^{15}$ va $b = 25^{15} + 15^{15}$
A) $a + 20 < b$ B) $a = b$ C) $a < b$ D) $a > b$

15. Uchbur chakning ikki tomoni 10 va 16 ga, ular orasidagi burchak 60° ga teng. Shu uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusini toping.
A) $\sqrt{3}$ B) $2\sqrt{3}$ C) $4\sqrt{3}$ D) $3\sqrt{3}$

16. O`tkir burchakli uchburchakning ikkita uchidan tushirilgan balandliklari kesishish nuqtasida uning uchlaridan boshlab hisoblaganda 3:1 va 2:3 nisbatda bo`linadi. Ushbu balandliklar orasidagi o`tkir burchakni toping.
A) 60° B) 30° C) 75° D) 45°

17. $\left[15\frac{5}{8} - 2\frac{2}{8}\right]^2 - \left[23\frac{7}{9} - 12\frac{7}{8}\right]^2$ ni hisoblang. Bu yerda [a]–a sonning butun qismi.
A) 44 B) 69 C) 23 D) 48

18. Bir guruh bolalarning o`rtacha og`irligi 37 kg ga teng. Qiz bolalarning o`rtacha og`irligi 35 kg, o`g`il bolalarning o`rtacha og`irligi esa 40 kg ligi ma`lum bo`lsa, o`g`il bolalar sonini toping
A) 10 B) 13 C) 12 D) 11

19. Radiusi 4 ga teng bo`lgan sharga yasovchisi 5 ga teng bo`lgankonus ichki chizilgan. Konus yasovchisining asos tekisligi bilan teshkil etgan burchak sinusini toping.
A) $\frac{5}{16}$ B) $\frac{5}{12}$ C) $\frac{5}{8}$ D) $\frac{4}{5}$

20. Dastlabki 10 ta tub son ketma–ket bir qatorga yozilib 6 ta raqam shunday o`chirildiki, natijada eng katta son hosil bo`ldi. Shu sonning sakkizinchi raqamini toping.
A) 7 B) 2 C) 1 D) 3

21. Dastlabki 100 ta natural sonlar orasida nechtasi 4 yoki 6 ga karrali emas?
A) 67 ta B) 64 ta C) 63 ta D) 66 ta

22. Agar $tg\alpha = -2$ bo`lsa, $\frac{3cos2\alpha+2}{1-3\cos^2\alpha}$ ning qiymatini toping.
A) –0,5 B) –0,95 C) 0,5 D) –3,16

23. Agar $c = 4$ bo`lsa, $\frac{4c^2}{(c-2)^2} : \left(\frac{1}{(c+2)^2} + \frac{1}{(c-2)^2} - \frac{2}{c^2+4}\right)$ ifodaning qiymatini toping.
A) 6 B) 9 C) 12 D) 3

24. $\frac{3\cdot 2^{2x-1}}{4^x - 9^x} > 3 + \left(\frac{4}{9}\right)^x$ tengsizlikni yeching.
A) $(0; 1)$ B) $(-0{,}5; 0)$ C) $(-1; 0)$ D) $(0; 0{,}5)$

25. $y = -\frac{2}{x^2+2}$ funksiyaning qiymatlar sohasini toping.
A) $(0; \infty)$ B) $(0; 1)$ C) $(0; 1]$ D) $[1; \infty)$

26. ABC uchburchakda BD va CE medianalar o`zaro perpendikulyar. Agar $BD = 1{,}5, CE = 3$ bo`lsa, ABC uchburchak yuzini toping.
A) 1 B) 4 C) 2 D) 3

27. $\vec{a}(1; 1)$ va $\vec{b}(0; -1)$ vektorlar berilgan $2\vec{a} - 3\vec{b}$ vektorni toping.
A) $(2; -5)$ B) $(5; 2)$ C) $(2; 5)$ D) $(-2; 5)$

28. $[200; 1000]$ kesmada 2, 3, 5 va 7 sonlariga bo`lganda qoldiq 1 ga teng bo`ladigan natiral sonlar nechta?
A) 2 B) 3 C) 4 D) 1

29. $\sqrt{6-x} < x$ tengsizlikning butun yechimlari o`rta arifmetigini toping.
A) 4,5 B) 1 C) 2,5 D) 3,5

30. 1, 2, 3, …, 9 raqamlardan nechta har xil to`rt xonali sonlar tuzish mumkin (bu yerda to`rt xonali sonlar turli raqamlardan tashkil topgan)?
A) 15120 B) 3024 C) 1612 D) 504

31. MS Excel 2003 dasturida yozilgan quyidagi funksiyaning qiymatini toping.
=СРЗНАЧ(31;10; 12; 7)
A) 16 B) 15 C) 12 D) 14

32. 5074, 7672 butun sonlarni barchasini yozish mumkin eng kichik asosli sanoq sistemasida shu sonlar yig`indisini hisoblang va natijani o`nlik sanoq sistemasida tasvirlang.
A) 4684 B) 6646 C) 8266 D) 2446

33. Laylo sakkizlik sanoq sistemasida (55; 100) oraliqdagi barcha butun sonlarni yozib chiqdi. Shahlo esa shu sonlardan 5 raqami, so`ng 6 raqami, keyin 7 raqami qatnashgan barcha sonlarni o`chirib tashladi. Qolgan sonlar yig`indisini sakkizlik sanoq sistemasida aniqlang.
A) 141 B) 15 C) 0 D) 74

34. MS Excel dasturida. =ОСТАТ(220; 136)–ЗНАЧЕН(ЗАМЕНИТЬ(СЦЕПИТЬ(2;2);2;3;2)) buyrug`ining natijasini toping.
A) 66 B) 82 C) 62 D) 80

35. Informatika o`rganadigan asosiy ashyoni aniqlang.
A) algoritm B) dastur
C) kompyuter D) axborot

36. Ikkilik sanoq sistemasida amallarni bajaring:
$11100 \cdot (1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1)$

A) 1111101000 B) 10111101000
C) 10110101100 D) 10100101000

Variant–128.

1. Agar $f(x) = x^3 + 2ax^2 + 3bx + 11$ va $f''(-2)=4$ bo`lsa, a ni toping.
A) 3 B) 1 C) 2 D) 4

2.$(x^2 + x - 2)^2 + (x^2 + x - 2) - 2 = x$ tenglamaning irratsional ildizlari ko`paytmasini toping.
A) 2 B) –2 C) $-\sqrt{6}$ D) $\sqrt{6}$

3.Konus uchidan unga ichki chizilgan shar markazigacha masofa 2 ga, konus yasovchisi esa 4 ga teng. Konus yasovchisi va asos tekislik orasidagi burchakning tangensini toping.
A) $\frac{3}{4}$ B) $\frac{4}{3}$ C) 4 D) 3

4. Ushbu $\begin{cases} y = x^8 \\ y = x + 5 \end{cases}$ tenglamalar sistemasi nechta yechimga ega?
A) 2 B) 0 C) 4 D) 1

5. 10 nafar o`quvchilardan iborat guruhda 3 nafar a`zodan tashkil topgan qo`mitani tanlab olish kerak. Bu ishni nechta usulda amalga oshirsa bo`ladi?
A) 56 B) 120 C) 30 D) 84

6. $f(x)$ funksiya berilgan $(a;b)$ intervalda differensiallanuvchi bo`lsin. $\big(f(x)\big)^4$ funksiyaning $(a;b)$ intervalda hosilasini toping.
A) $\big(f(x)\big)^3 \cdot f'(x)$ B) $3\big(f(x)\big)^3 \cdot f'(x)$
C) $3\big(f(x)\big)^3$ D) $4\big(f(x)\big)^3 \cdot f'(x)$

7. Ketma–ket x, y, z natural sonlar uchun $\frac{x}{y}+\frac{y}{z}+\frac{z}{x}+\frac{y}{x}+\frac{x}{z}+\frac{z}{y}$ son butun bo`lsa, $x + y - z$ ni toping.
A) 2 B) 3 C) 0 D) 1

8. Agar $|x - 6| = \frac{x}{2} + a$ tenglama bitta yechimga ega bo`lsa, a parametr nechta qiymat qabul qiladi?
A) 1 B) 2 C) 0 D) cheksiz ko`p

9. Agar $f(x) = asinx + bsin2x - 2$ funksiya uchun $f(-3) = -2$ shart bajarilsa, $f(3)$ qiymatni toping.
A) –2 B) –1 C) bir qiymatli aniqlanmaydi D) 1

10. Rasmda ABCD to`g`ri to`rtburchak. Agar BD dioganal 13 sm, AF= 5sm va FD=7 sm ga teng bo`lsa, AEF Uchburchakning yuzini (sm^2) toping.



A) 12,5 B) 15 C) 13,5 D) 10

11. $\frac{6x-1}{5} + 0{,}1 = \frac{8x+1}{2} - \frac{9x}{5}$ tenglamani yeching.
A) –1 B) 2 C) –0,6 D) 1

12. Piramidaning asosi tomoni $2\sqrt{3}$ va o`tkir burchagi $30°$ ga teng bo`lgan rombdan iborat. Ushbu piramidaga ichki chizilgan konusning yasovchisi asos tekisligi bilan $45°$ li burchak tashkil etuvchi konus ichki chizilgan. Konusning hajmini toping.
A) $\frac{\sqrt{3}\pi}{4}$ B) $\sqrt{3}$C) $\frac{\sqrt{3}\pi}{8}$ D) 2π

13. Konusning yasovchisi $2\sqrt{3}$ ga teng. Konusning uchidan unga ichki chizilgan shar markazigacha bo`lgan masofa 3 ga teng. Konus yasovchisi va asos tekisligi orasidagi burchakni toping.
A) $2arctg3$ B) $\frac{\pi}{4}$C) $2arctg\frac{1}{3}$D) $\frac{\pi}{3}$

14. $x^2 + ax + 3 = 0, x^2 - 3x - a = 0$ tenglamalar faqat bitta umumiy haqiqiy yechimga ega bo`lsa, a ni toping.
A) –3 B) 3 C) 5 D) 4

15. Teng yonli uchburchakning asosiga parallel o`rta chizig`i 7 ga, perimetri esa 30 ga teng. Uning yon tomonining asosiga nisbatini toping.
A) $\frac{4}{7}$ B) $\frac{2}{7}$ C) $\frac{3}{7}$ D) $\frac{1}{7}$

16. $\left(\left[\frac{218}{37}\right]^2 + [-12,(99)]\right)^2$ ni hisoblang. Bu yerda $[a] - a$ sonining butun qismi.
A) 196 B) 169 C) 144 D) 121

17. a ning qanday qiymatida $P(x) = 2x^{12} - ax^6 + 4x^3 - 3x^2 + 5x + 1$ ko`phadning koeffitsiyentlari yig`indisi 6 ga teng bo`ladi?
A) 2 B) 3 C) –1 D) –4

18.Dastlabki o`n uchta natural sonlar yig`indisining kvadrati 8281 ga teng bo`lsa, shu sonlar kublarining yig`indisini toping.
A) 1296 B) 753571 C) 46656 D) 8281

19. To`g`ri tenglikni aniqlang.
A) $(-124)^{\frac{7}{3}} = \sqrt[3]{124^7}$
B) $(5^{log_{25}9} - log_{\frac{1}{3}}27)^{((\sin^2 18+\sin^2 468^2)\sqrt[3]{2}-\sqrt{3})} = 0$

C) $\sqrt{(x-2)^2} = |x-2|$

D) $\frac{4(2a^2-a-1)}{5(2a+1)} = \frac{4}{5}(a-1), a \epsilon R$

20. 2001 ta butun musbat sonning ko`paytmasi 105 ga, yig`indisi 2021 ga teng. Bu sonlarning eng kattasi nimaga teng?
A) 15 B) 105 C) 21 D) 35

21. To`g`ri burchakli uchburchak gipotenuzasiga tushirilgan balandligi 3 ga, to`g`ri burchak bissektrisasi 4 ga teng. Uchburchakning yuzini toping.
A) 36 B) 96 C) 64 D) 72

22. 9 nafar ishchidan 3 ta kishidan iborat brigada kerak. Bu ishni nechta usulda amalga oshirsa bo`ladi?
A) 27 B) 36 C) 84 D) 120

23. Kvadratning tomonlari koordinata o`qlariga parallel va 6 ga teng. Uning markazi (2; 1) nuqtada joylashgan. Kvadrat tomonlarining absissa o`qibilan kesishish nuqtalari koordinatalarini toping.
A) (1; 0), (5; 0) B) $(0; 0), (6; 0)$
C) $(-1; 0), (5; 0)$ D) $(-1; 0), (0; 5)$

24. “Ikkita irratsional sonlar ayirmasi irratsional son bo`ladi” tasdiqni qanday inkor etish mumkin?
A) Ikkita irratsional sonlar ayirmasi ratsional son ham bo`lishiga misol keltirish yetarli
B) “Ixtiyoriy irratsional son ikkita irratsional sonlar ayirmasidir” tasdig`ini isboti yetarli
C) Hech qanday. Keltirilgan tasdiq to`g`ri.
D) “Ixtiyoriy irratsional son ikkita ratsional sonlar ayirmasidir” tasdig`ini isboti yetarli

25. $x^2 + y^2 + z^2 = 6x + 8y + 10z - 50$ bo`lsa, $x + y + z$ ni toping.
A) 12 B) 10 C) 6 D) 0

26. Raqamlari yig`indisi 2001 ga teng bo`lgan eng kichik natural sonning birinchi raqami nimaga teng?
A) 4 B) 1 C) 3 D) 2

27. $2x - 3\sqrt{2x-1} + 1 = 0$ tenglamaning eng kichik ildizining katta ildizga nisbatini toping.
A) 1 B) 0,4 C) 0,5 D) 2,5

28. x_1 va x_2 sonlar $x^2 - 3x - 4 = 0$ tenglamaning ildizlari bo`lsa, $(x_1^2 x_2 + x_1 x_2^2)^2$ ni hisoblang.
A) 144 B) 196 C) 121 D) 169

29. $(x^2 - 8x + 18)^2 - 8(x^2 - 8x + 18) + 18 = 0$ tenglamaning butun yechimlari yig`indisini toping.
A) 0 B) 1 C) 9 D) 18

30. Natural n sonni kvadrati 10 ga bo`linganda qanday qoldiqlarga ega bo`lishi mumkin?
A) 0; 2; 3; 7; 6 B) 0; 1; 4; 5; 6; 9
C) 0; 2; 3; 5; 8 D) 0; 2; 3; 5; 9

31. Quyidagi html–hujjat kodi yozilishi bo`yicha kataklar ketma–ket sanalganda birinchi katakda qanday shriftdagi ro`yxat qo`llanilgan?
<table><tr><td>test
</td><td colspan=3>test
</td></tr><tr><td>colspan=2>
test</td><td>test
</td><td><storong>
test
</storong></td></tr></table>
A) Og`ma shriftli tartiblangan ro`yxat
B) Oddiy shriftli tartiblangan ro`yxat
C) O`g`ma shriftli marketlangan ro`yxat
D) Qalin shriftli marketlangan ro`yxat

32. Aniq bir predment sohasi bo`yicha masalalar yechishga mo`jjallangan dasturlar majmuasi bu–…
A) dasturlar yaratish vositalari
B) yordamchi dasturiy ta`minot
C) tizim(sistema) li dasturiy ta`minot
D) amaliy dasturiy ta`minot

33. Microsoft Excel 2003 dasturida A1=14, A2=6, A3=4, A4=СТЕПЕНЬ(СРЗНАЧ(A1;A3); СЧЕТЕСЛИ(A2:A3;”>2)) bo`lsa, A4 katakchadagi formula natijasini toping.
A) 0 B) 24 C) 36 D) 64

34. 102, 350, 162, 22 butun sonlar barchasini yozish mumkin bo`lgan eng kichik asosli sanoq sistemasida shu sonlar yig`indisini aniqlang.
A) 2210 B) 1406 C) 1024 D) 1156

35. Ma`murxon sakkizlik sanoq sitemasida (55;100) oraliqdagi barcha butun sonlarni yozib chiqdi. Ma`rufxon esa shu sonlardan avval 5 raqami, so`ng 6 raqami qatnashgan barcha sonlarni o`chirib tashladi. Qolgan sonlar yig`indisini sakkizlik sanoq sistemasida aniqlang.
A) 353 B) 423 C) 541 D) 644

36. Paskal tilida quyidagi dastur qismining bajarilishi natijasida ekranga chiqariladigan axborotni aniqlang:
a:=’Uzbekistan’; K:=Length(a); write (k; a);
A) 10Uzbekistan B) K=10
C) Uzbekistan10 D) 10 Uzbekistan

Variant 129.

1. ABC teng yonli (AB=AC) uchburchakning BD bissektrisasi AC tomoni AD=8 va DC=4 kesmalarga ajratilsa, BD bissektrisa uzunligini toping.
A) 10 B) $2\sqrt{5}$ C) 5 D) $2\sqrt{10}$

2. Teng yonli tyrapetsiyaning katta asosi 75, yon tomoni 20 va dioganali 65 bo`lsa, trapetsiyaning yuzini toping.
A) 1008 B) 2016 C) 908 D) 1108

3. M va N to`plamlarning kesishmasi qanday belgilanadi?
A) MN B) MUN C) M∩N D) M·N

4. Bir kunlik dars jadvalida turli fanlar bo`yicha 3 ta dars bor. 10 ta fandan iborat bo`lgan shunday jadvallar sonini toping.
A) 720 B) 990 C) 120 D) 210

5. $x^2-\sqrt{x^2-4x+4}=-4$ tenglamaning haqiqiy ildizlari sonini toping.
A) 1 B) 3 C) 4 D) 2

6. Agar $\frac{mn}{n^2+12m^2}=\frac{1}{7}$ ekanligi ma`lum bo`lsa, $\frac{3mn}{2n^2+5m^2}$ ni toping.
A) $\frac{4}{9}$ yoki $\frac{9}{13}$ B) $1\frac{5}{12}$ C) $\frac{12}{17}$ yoki $\frac{4}{9}$ D) $\frac{9}{13}$

7. Agar $a<0$ bo`lsa, $\frac{3}{x}<\frac{1}{a}$ tengsizlikni yeching.
A) $0<x<3a$ B) $x<3a$
C) $x>3a$ D) $2a<x<0$

8. $\begin{cases}|5x+4|\le 25\\ |x+6|\ge 11\end{cases}$ tengsizliklar sistemasi nechta butun musbat yechimga ega?
A) 3 B) 5 C) 4 D) ∅

9. $f(x)=-3x^2+9x+t-3$ funksiyaning maksimumi 3 ga teng. t ning qiymatini toping.
A) –0,75 B) –1,75 C) –2 D) –1

10. Uchlari A(2;3) va B(–1;–1) nuqtalarda bo`lgan AB kesmaning uzunligini toping.
A) 5 B) 10 C) 12 D) 6

11. Asosi a ga, yon tomoni b ga teng bo`lgan teng yonli uchburchakning yon tomoniga tushurilgan balandlik uzunligini toping.
A) $h_b=\frac{a}{b}\sqrt{4b^2-2a^2}$ B) $h_b=\frac{b}{2a}\sqrt{4b^2-2a^2}$
C) $h_b=\frac{a}{2b}\sqrt{4b^2-2a^2}$ D) $h_b=\frac{b}{a}\sqrt{4b^2-2a^2}$

12. $y=\frac{\sqrt{x+1}+\sqrt{7x-6-x^2}}{|5x-x^2|}$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.
A) [1;5) B) (5;6] C) [1;6] D) $[1;5)\cup(5;6]$

13. Rasmda $y=a\cdot\sqrt{(x-b)^2+2c}+d$ funksiya grafigi tasvirlangan. Qauyidagi javoblardan qaysi biri o`rinli?



A) $a^2bc>0$ B) $\frac{b+a^2c}{a}=0$
C) $\frac{cb^2}{\sqrt{d-a}}<0$ D) $\frac{db^2}{\sqrt{c-a}}>0$

14. $y=f(x)$ funksiya grafigi berilgan bo`lib, uni parallel ko`chirish yordamida $y=f(x-m)-n$ funksiya grafigi hosil qilingan. Bunday parallel ko`chirishda koordinata boshi qanday nuqtaga ko`chadi?
A) N(m;n) B) N(–m;n)
C) N(–m;–n) D) N(m;–n)

15. a va b natural sonlarning EKUB i 30 ga, ko`paytmasi 36000 ga teng bo`lsa, shu sonlarni EKUK ini toping.
A) 1200 B) 900 C) 1800 D) 1000

16. To`g`ri burchakli ABC uchburchak CD balandlik bilan BCD va ACD uchburchaklarga bo`linadi. Shu uchburchaklar yarim perimetrlari mos ravishda 7 va 24 ga teng. ABC uchburchakning yarim perimetrini toping.
A) 26 B) 21 C) 25 D) $22\sqrt{2}$

17. $\overline{ab}$ va $\overline{ba}$ ikki xonali sonlar. Agar $\overline{ab}-\overline{ba}=45$ bo`lsa, a^2+b^2-2ab ning qiymatini toping.
A) 25 B) 36 C) 16 D) 49

18. ABC uchburchakning BC tomoniga AB ga teng AD kesma o`tkazilgan. Agar AC=10, DC=2 va BD=12 bo`lsa, AB ning uzunligini toping.
A) $3\sqrt{2}$ B) $6\sqrt{2}$ C) $2\sqrt{3}$ D) $6\sqrt{3}$

19. $x^2-2x-3=0$ tenglamaning haqiqiy ildizlari yig`indisini toping.
A) –2 B) 3 C) –3 D) 2

20. A(–5;–9), B(–3;0), C(–1;–9) nuqtalarni tutashtirishdan hosil bo`lgan uchburchak yuzini toping.
A) 18 B) 19 C) 20 D) 17

21. ABCD parallelogramm uchta uchining koordinatalari ma`lum: A(0;1), B(1;2), C(7;2) ABCD parallelogramm yuzini toping.
A) 3 B) 4 C) 12 D) 6

22. Agar $a>0$ bo`lsa, $y=\frac{a}{|x+a|}$ funksiyaning gorizontal asimtotasini toping.

23. $log_{\sqrt{6}-\sqrt{5}}(241+44\sqrt{30})$ ni hisoblang.
A) -4 B) -5 C) 4 D) 6

24. $\frac{16x^2}{(1+x^2)(9x^2+1)}$ ifodaning eng katta qiymatini toping.
A) 3 B) $\frac{4}{5}$ C) 1 D) 2

25. $\frac{x-2}{x+3}+\frac{3x+9}{x-2}=-4$ tenglama ildizlari yig`indisini toping.
A) –2,25 B) –3 C) –2 D) –0,5

26. Qaysi jism(lar)ning simmetriya tekisliklari chekli sonda?
1) shar; 2) prizma; 3) konus
A) 1 B) 2 C) 2, 3 D) 3

27. Agar $f(x)=mx^2-(m-10)x-2$ parabolaning simmetriya o`qi tenglamasi $x=-2$ bo`lsa, m ning qiymatini toping.
A) 1,2 B) 1,8 C) 2 D) 3

28. Agar $x\epsilon[-4;4]$ bo`lsa, $\sqrt{x^2+8x+16}+\sqrt{x^2-8x+16}$ ifodaning qiymatini hisoblang.
A) 8 B) –4 C) 6 D) $2x$

29. $y=\ln^3 x$ funksiya grafigi berilgan bo`lib, uni parallel ko`chirish yordamida $y=\ln^3(x-a)+b$ funksiya grafigi hosil qilingan. Bunday parallel ko`chirishda koordinata boshi qanday nuqtaga ko`chadi? Bunda $x>a, x>0$
A) $N(a;b)$ B) $N(b;a)$ C) $N(a;-b)$ D) $N(-a;b)$

30. Qaysi jism(lar)ning simmetriya o`qlari chekli sonda?
1) shar; 2) prizma; 3) konus; 4) kub
A) 2, 3 B) 3, 4 C) 2, 3, 4 D) 1

31. Faylga yo`l berilgan: C:\$My\ pictures\klass\ picture.bmp$ Bosh katalogni ko`rsating.
A) my pictures B) picture C) C: D) klass

33. MS Excel. A1=10; B1=14; B2=6 bo`lsa, =СУММ(A1–B2;A2–B1) funksiyaning javobi 5 ga teng bo`lishi uchun A2 katakda qanday son bo`lishi kerak?
A) 16 B) 15 C) 17 D) 14

34.Bir nechta bola 36 dona olmani yeyishmoqchi edi. Ali “Men olmalarni shunday taqsimlay olamanki, har birimizda 5 tadan ko`p olma bo`lmaydi” dedi. Vali esa “Men olmalarni shunday taqsimlay olamanki, xech birimiz olmasiz qolmaymiz va barchamizda olmalar soni turlicha bo`ladi”. Bolalar sonini aniqlang.
A) 11 ta B) 11 ta C) 8 ta D) 9 ta

35. Paskal. Quyidagi dastur natijasini aniqlang.
Var X, Y :Integer;
Begin X:=20; Y:=40; IF X<Y THEN
begin X:=(X+Y) div 2; Y:=X*Y; end ELSE begin
Y:=(X+Y) div2; X:=X*Y; end;
Write(‘X=’, X, ‘Y=’, Y); End
A) Kompilyatsiyada xatolik xabari chiqadi
B) X=20Y=40
C) X=800Y=80
D) X=60Y=1200

36. MSExcel = ОСТАТ(–20; 12)–ЗНАЧЕН(ЗАМЕНИТЬ(СЦЕПИТ(3; 2);2;3,2)) hisoblash amalga oshirilganda qiymatini toping.
A) 23 B) –28 C) –20 D) –26

Variant–130

1. Agar $\begin{cases}tg\alpha+ctg\beta=-3\\sin\beta\cdot cos\alpha=0{,}2\end{cases}$ bo`lsa, $\cos(\alpha-\beta)$ ning qiymatini toping.
A) 0,8 B) –0,4 C) 0,6 D) –0,6

2. $y=(x+8)\cdot e^{x-8}$ funkiyaning minimum nuqtasini toping.
A) –8 B) –10 C) –9 D) –7

3. Radiusi 3 ga teng bo`lgan aylananing markazi bo`lgan O nuqta ABC to`g`ri burchakli uchburchakning AC gipotenuzasida yotadi. Agar OC kesmaning uzunligi 5 ga teng bo`lsa, va aylana uchburchakning katetlariga urinsa, uchburchak yuzini toping.
A) $17\frac{3}{8}$ B) $18\frac{3}{8}$ C) $17\frac{1}{8}$ D) $18\frac{1}{8}$

4. $y=3-\sqrt{16-\sqrt{4x^2-4\sqrt{3}x+3}}$ funksiyaning qiymatlar sohasiga tegishli bo`lmagan eng kichik natural sonni toping.
A) 3 B) 5 C) 4 D) 1

5. ABCD parallelogramm uchta uchining koordinatalari ma`lum: A(–3;1), B(3;–6), C(5;–4). D uchining absissasini toping.
A) 12 B) 14 C) 11 D) 8

6. $\vec{a}(1;4) va\ \vec{b}(-3;2)$ vektorlar berilgan. $\vec{a}+\lambda\vec{b}$ vektori $\vec{a}$ vektoriga perpendikulyar bo`ladigan λ sonini toping.
A) $\frac{17}{5}$ B) $-\frac{5}{17}$ C) $\frac{5}{17}$ D) $-\frac{17}{5}$

9. $1-2+3-4+5-6+\cdots+2015-2016+2017$ ni hisoblang.
A) 1010 B) -1009 C) 1009 D) –1008

8.Biror ikki xonali son va uning raqamlari o`rnini almashtirib, ularni qo`shganda biror sonning kvadrati bo`ladigan barcha ikki xonali sonlarni toping.
A) 29, 38, 47, 56, 65, 74, 83, 92
B) 29, 35, 45, 56, 65, 74, 83, 92
C) 29, 32, 47, 56, 65, 74, 83, 92
D) 29, 38, 45, 56, 65, 74, 83, 92

9. $log_{\sqrt{3}+1}(28-16\sqrt{3})$ ni hisoblang.
A) 6 B) –4 C) 4 D) –5

10.Axborot– resurs markazida 15 ta kompyuter o`rnatilmoqda, bunda ayrimlari kabel bilan ulanmoqda. Har bir kompyuterdan 4 kabel chiqishi lozim bo`lsa, jami bo`lib nechta kabel kerak?
A) 24 B) 30 C) 40 D) 60

11. $\begin{cases}|6+x|\le 10,\\ |2x+7|\ge 15\end{cases}$ tengsizliklar sistemasi nechta butun yechimga ega?
A) 8 B) 4 C) 6 D) 7

12. Piramidaning asosi tomoni $6\sqrt{3}$ ga va o`tkir burchagi $30°$ ga teng bo`lgan rombdan iborat. Piramidaga yasovchisi asos tekisligi bilan $45°$ li burchak tashkil etuvchi konus ichki chizilgan. Konusning hajmini toping.
A) $\frac{27\sqrt{3}\pi}{8}$ B) $\frac{3\pi}{4}$ C) $\frac{9\sqrt{3}\pi}{16}$ D) $\frac{3\pi}{8}$

13. Muntazam o`noltiburchakli piramidaning yon qirrasi 10 ga, piramidaning balandligi 6 ga teng. Piramidaga tashqi chizilgan sferaning radiusini toping.
A) 7 B) 8 C) $8\frac{2}{3}$ D) $8\frac{1}{3}$

14. Piramidaning asos katetlari 5 va 12 ga teng bo`lgan to`g`ri burchakli uchburchakdan iborat. Piramidaning barcha yon qirralari asos tekisligi bilan $45°$ li burchak tashkil etsa piramidaning katta yon yog`I yuzini toping.
A) 36 B) 32,5 C) 45 D) 42,25

15. Muntazam to`rtburchakli prizma asosining yuzi 36 ga teng. Agar prizmaning dioganali yon qirrasi bilan $30°$ li burchak tashkil qilsa, prizmaning yon sirti nimaga teng.
A) $140\sqrt{6}$ B) $143\sqrt{6}$ C) $144\sqrt{6}$ D) $141\sqrt{6}$

16. Yuk tashish mashinasi 240 km yo`lni bosib o`tishi kerak edi. Mashina yo`lning o`rtasida 30 daqiqa to`xtab qolgach tyezligini 20 km/soatga oshirib, belgilangan joyga o`z vaqtida yetib keldi. Mashinaning boshlang`ich tezligini(km/soat) toping.
A) 45 B) 70 C) 20 D) 60

17. $\begin{cases}x-y=9\\ lgx+lgy=1\end{cases}$ tenglamalar sistemasining yechimlaridan iborat x va y larning yig`indisini toping.
A) 22 B) 14 C) 11 D) 28

18. Bechta bir xil kvadratlardan rasmdagidek shakl hosil qilingan. Agar $AB=3\sqrt{2}$ bo`lsa, shaklning yuzini toping.



A) 18 B) 24 C) 6 D) 9

19. Dastlabki 48 ta natural sonlar orasida nechtasi 3 yoki 4 ga karrali emas
A) 28 ta B) 23 ta C) 24 ta D) 16 ta

20. ABC uchburchakning BC va AC tomonlarida mos ravishda D va E nuqtalar shunday olindiki, bunda $\angle BAD=50°, \angle ABE=30°$ bo`lsa, $\angle BED$ ni toping.
A) $40°$ B) $80°$ C) $70°$ D) berilganlar yetarli emas

21. Qavariq ABCDEF oltiburchakda ichki burchaklari o`zaro teng. Agar $AB=3, BC=4, CD=5, EF=2$ bo`lsa, AF tomon uzunligini toping.
A) 7 B) 2 C) 6 D) bir qiymatli aniqlab bo`lmaydi

22. Teng yonli uchburchak asosidagi burchak tangensi $\sqrt{3}$ ga teng. Uning yon tomoniga o`tkazilgan medianasi va asosi orasidagi burchakni toping.
A) $60°$ B) $30°$ C) $15°$ D) $45°$

23. Agar $f'(x)=\frac{3}{e^x}, f(ln3)=0$ bo`lsa, $f(x)$ ni toping.
A) $-3e^{-x}-1$ B) $-3e^{-x}+1$
C) $3e^{-x}+1$ D) $3e^{-x}+2$

24. Ratsional sonlar to`plami qanday ko`rinishda yoziladi?
A) $Q=\{r|r=\frac{P}{q}, p\epsilon N, q\epsilon N\}$
B) $Q=\{r|r=\frac{P}{q}, p\epsilon Z, q\epsilon Q\}$
C) $Q=\{r|r=\frac{P}{q}, p\epsilon Z, q\epsilon Z\}$
D) $Q=\{r|r=\frac{P}{q}, p\epsilon Z, q\epsilon N\}$

25. Akvariumning bo`yi 150 sm, eni 110 sm, balandligi 80 sm. Suv sathi yuqoridan 10 sm pastda bo`lishi uchun akvariumga necha litr suv quyish kerak?
A) 1255 B) 115,5 C) 1455 D) 1155

26. $(m^2+n^2+9)x^2+2(m+n+3)x+3=0$ tenglamalar haqiqiy yechimlariga ega bo`lsa, $4m-n$

ni toping.
A) –3 B) –4 C) 8 D) 9

27. $x < 0$ da $|x - |x - 8| - 8|$ ifodani modul belgisiz yozing.
A) 0 B) $2x - 16$ C) $-2x$ D) $2x$

28. Ko`phadni ozod hadini toping.
$$f(x) = (2x + 1)^2 \cdot (3x + 2)^3 \cdot (x - 1)^{202} + (x - 1)^{2000} + 17$$
A) 26 B) 33 C) 20 D) 9

29. $y = \sqrt{4 - (x - 3)^2}$ va $y = 0$ funksiya grafiklari bilan chegaralangan soha yuzini toping.
A) 2π B) 3π C) 4π D) π

30. $\int \frac{dx}{\sqrt{9-x^2}}$ ni hisoblang.
A) $\arcsin\frac{x}{3} + C$ B) $arcsinx + C$
C) $\frac{1}{3}arcsinx + C$ D) $\frac{1}{3}\arcsin\frac{x}{3} + C$

31. Rim sanoq sistemasida to`g`ri tenglikni aniqlang.
A) CLXXXIII+XXIX=CCXIII
B) XXX·XXIX=DCCCLXVIII
C) CCIII:XXIX=VII
D) CCLXXVII–LXXXVIII=CXC

32. MSExcel =ОСТАТ(–100;40)–ЗНАЧЕН(ЗАМЕНИТЬ(СЦЕПИТЬ(–23;6);3; 3;10)) funksiyaning natijasini toping.
A) 230 B) 364 C) 210 D) 226

33. Axborotni uzatish o`lchov birligi sifatida … qabul qilingan.
A) 1 megabit B) 1bit C) 1 bot D) 1 bayt

34.Windows operatsion tizim (Sistema) ida fayl nomi noto`g`ri berilgan javobni toping.
A) (Informatika).doc B) [Informatika].doc
C) informatika.doc D) <Informatika>.doc

35. Nashriyot tizim(Sistema)larida qaysi dasturlar ishlatiladi?
A) Adobe Page Maker, MS Acces, MathCAD.
B) Adobe Page Maker, Latex, Tex, Quark Xpress
C) Adobe Page Maker, Latex, MS Word, MS Excel
D) Adobe Page Maker, Quark Xpress, MS Excel

36. Quyidagi mulohazalardan rost qiymatga egalarini aniqlang:
1) Axborot ikki turga bo`linadi
2) Web–sahifalarni hosil qilish vositasi–brauzerlar.
3) Plotter–chizmalarni qog`ozga chiqaruvchi qurilma.
4) www.uz–milliy qidiruv tizimi emas
A) 1, 3 B) 4, 2 C) 1, 4 D) 2, 3